

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Ss.01.08  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**TURGUNOVA NASIBA TUYCHIEVNA**

**O‘ZBEKISTONDA YOSHLAR SIYOSATINI AMALGA OSHIRISHGA  
KOMPLEKS YONDASHUV VA UNING STRATEGIK YO‘NALISHLARI**

**23.00.02 – Siyosiy institutlar, jarayonlar va texnologiyalar**

**Siyosiy fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent–2024**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации**

**Contents of the abstract of the dissertation of the Doctor of Science (DSc)**

**Turgunova Nasiba Tuychiyevna**

O‘zbekistonda yoshlar siyosatini amalga oshirishga kompleks yondashuv va uning strategik yo‘nalishlari..... 3

**Тургунова Насиба Туйчиевна**

Комплексный подход к реализации молодежной политики в Узбекистане и его стратегические направления..... 29

**Turgunova Nasiba Tuychiyevna**

A comprehensive approach to the implementation of youth policy in Uzbekistan and its strategic directions..... 59

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ  
List of published work..... 64

**O O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Ss.01.08  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**TURGUNOVA NASIBA TUYCHIEVNA**

**O‘ZBEKISTONDA YOSHLAR SIYOSATINI AMALGA OSHIRISHGA  
KOMPLEKS YONDASHUV VA UNING STRATEGIK YO‘NALISHLARI**

**23.00.02 – Siyosiy institutlar, jarayonlar va texnologiyalar**

**Siyosiy fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent–2024**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.DSc/Ss83 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.fs-ik.uz](http://www.fs-ik.uz)) va «ZiyoNet» axborot-ta’lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:**

**Paxrutdinov Shukritdin Ilyasovich**  
siyosiy fanlar doktori (DSc), professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Axmedov Xusniddin Aliqulovich**  
siyosiy fanlar doktori (DSc), professor

**Atamuratov Murat Utepbergenovich**  
siyosiy fanlar doktori (DSc), dotsent

**Mirzaahmedov Kamoliddin Mansurjon o‘g‘li**  
siyosiy fanlar doktori (DSc), dotsent

**Etakchi tashkilot:**

**Namangan davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Milliy universitetida huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc03/30.12.2019.Ss.01.08 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ soat \_\_\_dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (99871) 227-12-24; faks: (99871) 246-02-24; e-mail: [nauka@nuu.uz](mailto:nauka@nuu.uz) O‘zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti binosi, 5-qavat, 511-xona)

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Milliy universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko‘chasi, 4-uy. O‘zMU Ma’muriy binosi, 2-qavat, 4-xona. Tel.: (99871) 246-67-71; faks: (99871) 246-02-24.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2024-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi).

**B.A. Omonov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi o‘rinbosari, siyosiy fanlar doktori (DSc), dotsent

**G.T. Isanova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

**B.A. Omonov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, siyosiy fanlar doktori (DSc), dotsent

## KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Hozirgi kunda dunyoda beshafqat raqobat, turli yo‘nalishlardagi qarama-qarshilik va ziddiyatlar keskin tus olmoqda. Global myammolar – xalqaro terrorizm, ekstremizm, murosasizlik, savodsizlik, jaholat, qashshoqlik, zo‘ravonlik g‘oyasi “virusi”, “ommaviy madaniyat”, odam savdosi, qurol-yarog‘ va narkotik moddalar kontrabandasi, noqonuniy migrasiya kabi xavf-xatarlar kuchayib, odamzod asrlar davomida amal qilib kelgan e‘tiqod va qadriyatlarga putur etkazmoqda. Bunda esa yoshlar asosiy nishon sifatida ko‘rilmoqda. Shu bilan birga, bugungi kun yoshlari muhim tarixiy burilish pallasida turibdi. Dunyoda kuzatilayotgan turli transformatsion jarayonlar, global o‘zgarishlar “kattalarning keyingi avlodga” adolatli va ziddiyatsiz dunyoni meros qoldirishi an‘anasining ayrim hollarda buzilishini keltirib chiqarmoqda. Natijada yoshlar oldingi avlod davrida kuzatilmagan yangi o‘zgarishlarga guvohi bo‘lishi bilan birga yangi tahdidlarga qarshi turishiga to‘g‘ri kelmoqda. Bunga jumladan, zamonaviy axborot texnologiyalarining shiddat bilan rivojlanishi va uning ta‘sirida demokratik qadriyatlarning o‘zgarib borishi tendensiyalari hamda dunyoning ayrim mintaqalarida kuzatilayotgan qurolli to‘qnashuvlar yoshlar hayotida o‘z aksini qoldirayotgani ham sabab bo‘lmoqda. Mutaxassislar fikricha, yoshlar global o‘zgarishlar natijasida yuzaga kelgan turli ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy o‘zgarishlarning obyektiga aylanmoqda<sup>1</sup>. Bu borada mamlakatimiz prezidenti Sh. Mirziyoyev shunday deb ta‘kidlagan edi: ma‘lumki, bugun dunyoda keskin kurash va raqobat hukm surmoqda, manfaatlar to‘qnashuvi kuchaymoqda. Globallashuv jarayonlari insoniyat uchun beqiyos yangi imkoniyatlar bilan birga kutilmagan muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Milliy o‘zlik va ma‘naviy qadriyatlarga qarshi tahdid va xatarlar tobora ortmoqda. Faqat o‘zini o‘ylash, mehnatga, oilaga engil qarash, iste‘molchilik kayfiyati turli yo‘llar bilan odamlar, ayniqsa, yoshlar ongiga ustamonlik bilan singdirilyapti. Terrorizm, ekstremizm, transmilliy va kiberjinoyatchilik, odam savdosi, narkotrafik kabi tahdidlar xavfi oshib bormoqda. Ba‘zi hududlarda atayin beqarorlik yuzaga keltirilib, norozilik kayfiyati avj oldirilmoqda<sup>2</sup>. Mazkur holat o‘z navbatida, yoshlar siyosatiga ham jiddiy ta‘sir o‘tkazib, uni amalga oshirishda zamonaviy transformatsion jarayonlarni hisobga olish, moslashish va ayrim ziddiyatlarga qarshi tura olish ko‘nikmalarini shakllantirish ushbu jarayonlarni ilmiy-metodologik jihatdan asoslash hamda turli o‘zgarishlar dinamikasini amaliy jihatdan muntazam tarzda o‘rganib borish zaruratini taqozo etmoqda.

Rivojlangan xorijiy davlatlar, jahonning yetakchi ilmiy markazlari, oliy ta‘lim muassasalari hamda xalqaro tashkilotlar tomonidan yoshlar siyosatini amalga oshirish, uning strategik yo‘nalishlariga oid ilmiy izlanishlar, nazariy va amaliy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Bunda jumladan, yoshlar bilan ishlash, yoshlarga zarur qulay infratuzilmani yaratish, qaror qabul qilish jarayonida ularning

---

<sup>1</sup> Ферлонг А. Картмель Ф. Молодежь и социальные изменения: индивидуализация и риск в эпоху позднего модерна. 1997. Buckingham, Open University Press; Майлз С. Молодежный образ жизни в меняющемся мире. 2000. Buckingham, Open University Press.

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev raisligida 2021-yil 19-yanvar kuni ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo‘yicha o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishi. //president.uz/uz/lists/view/4089

qiziqishlari, manfaat va ehtiyojlarini inobatga olish va bunda zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy qilish masalalari ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, XX-asrning 60-yillari yarmidan boshlab ko'pgina xalqaro tashkilotlar, shuningdek, BMT tuzilmalarida yosh avlodni tarbiyalash, ijtimoiy muhofaza qilish va har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha turli ko'rinishdagi hamkorlik yo'nalishlari rivojlana boshlandi. BMTning Iqtisodiy va ijtimoiy kengashi tomonidan 1973-yil 14-dekabrda qabul qilingan 3140-sonli qarorida yoshlar huquqlari bo'yicha xalqaro siyosatni milliy va xalqaro miqyosda ishlab chiqish hamda tasdiqlash taklif qilingan. 1998-yilgi Praga deklaratsiyasida esa jamiyatda yoshlarning muhim roli qayd etilgan.

XX-asrning 90-yillaridan boshlab xalqaro hamjamiyatning yoshlar masalasiga e'tibori yanada kuchaydi. Bu borada BMT va boshqa yirik xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar tomonidan ko'plab muhim hujjatlar qabul qilindi. Shundan, faqatgina BMT doirasida 10 dan ortiq xalqaro hujjatlar qabul qilindi. Bundan tashqari, dunyoning aksariyat davlatlarida yoshlarni ijtimoiy himoya qilish va uni kuchaytirish bo'yicha qonunchilik hujjatlari qabul qilingan. Shuningdek, yoshlar siyosatini amalga oshiruvchi va bu sohadagi ishlarni muvofiqlashtirib turuvchi ixtisoslashgan davlat tuzilmalari faoliyat ko'rsatmoqda<sup>3</sup>. Umuman olganda, bugungi kunda yoshlar siyosati dunyoning aksariyat davlatlarida institutsionallashgan. Shunga qaramasdan, hozirda yoshlar duch kelayotgan muammolarning saqlanib qolayotgani davlatlar va xalqaro hamjamiyatdan har tomonlama qat'iy harakatlarni talab etmoqda. Bu esa yoshlar muammolariga xalqaro miqyosda yanada kengroq e'tibor qaratishni taqozo qilmoqda. Dunyoda yoshlar bilan bog'liq muammolarning saqlanib qolayotgani ijtimoiy-siyosiy fanlar oldiga kompleks yondashuvga asoslangan yangi paradigmani ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Yangi O'zbekistonda yoshlar masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda. Tarixiy qisqa davr ichida zamonaviy shart-sharoitlar va rivojlanish tendensiyalarga mos huquqiy-me'yoriy asos yaratildi, institutsional tuzilmalar shakllantirildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan beshta muhim tashabbus ilgari surildi. Uning doirasida belgilab berilgan vazifalar asosida yoshlarni ma'rifiy-ma'naviy, ijtimoiy, iqtisodiy jarayonlarga faol jalb qilish, jamiyatda mavjud muammolarni yoshlarni munosib tarbiyalash, ularga zarur sharoit va imkoniyatlar yaratish orqali hal qilish tashkil etadi.

Mazkur dissertatsiya 2016-yil 14-sentyabrdagi O'RQ-406-son "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 2017-yil 5-iyuldagi PF-5106-son "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston Yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi, 2020-yil 30-iyundagi PF-6017-son "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari hamda 2017-yil 14-martdagi PQ-2833-son "Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol

---

<sup>3</sup> Скробов А. О некоторых новых подходах к молодежной политике в условиях реформ // Социально-политический журнал. 1998. № 3. С. 129–140.

etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 30-iyundagi PQ-4768-son "O'zbekiston Respublikasi yoshlar ishlari agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi Qarorlari, shuningdek 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi hamda 2023-yil 11-sentyabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi farmonlari va "O'zbekiston – 2030" strategiyasini 2023-yilda sifatli va o'z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida PQ-300-son Qarori hamda sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy, konseptual hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. "Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish, milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash va liberallashtirishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi.** Yoshlarga oid davlat siyosatining konseptual asoslarini ishlab chiqish, uni amalga oshirish va umuman yoshlar bilan bog'liq ilmiy izlanishlar, tadqiqotlar dunyoning bir qator ilmiy va "aqliy" markazlari (tadqiqot institutlari, yoshlar masalalariga ixtisoslashgan xalqaro tashkilotlar, tahliliy muassasalar) tomonidan muntazam tarzda o'rganib boriladi.

Bu borada eng avvalo, BMT va uning tuzilmalarini alohida qayd etish lozim, jumladan, YUNISEF, Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi, yoshlar Byurosi va h.k. Bundan tashqari, quyidagi xorijiy davlatlardagi quyidagi ayrim tahliliy markazlarni ajratib ko'rsatish mumkin: Jahon iqtisodiyoti va xalqaro munosabatlar instituti (RF), Ijtimoiy-siyosiy tadqiqotlar instituti (RF), Milliy xavfsizlik muammolarini ilmiy tadqiq qilish markazi (RF), Kavkaz tadqiqot resurslari markazi (Ozarbayjon, Armaniston va Gruziya davlatlarida ofislari faoliyat yuritadi), Qozog'iston strategik tadqiqotlar instituti, Strategik tadqiqotlar milliy instituti (Qirg'iziston), strategik tadqiqotlar Markazi (Tojikiston), Demokratiya va tinchlik instituti (Ozarbayjon), yoshlar masalalari bo'yicha Yevropa ekspert qo'mitasi, Yevropa yoshlar fondi va h.k.

Shu bilan birga, jahonda yoshlar masalalari bo'yicha alohida ixtisoslashuvga ega nodavlat notijorat tashkilotlari ham o'z faoliyatini amalga oshirib kelmoqda. Jumladan, ta'lim sohasida Erasmus Mundus (Evropa Ittifoqining talabalar almashish) va FLEX (AQSh talabalar almashish), faol va iqtidorli yoshlar uchun "Yoshlar harakatda", "Madaniyatlararo muloqot" va boshqa qator dasturlar amalga oshirilmoqda.

Dissertatsiya mavzusi doirasida o'rganilgan ilmiy manbalar tahlili yoshlar bilan bog'liq masalalarning strategik ahamiyatga ekanini tasdiqlaydi, shuningdek, zamonaviy texnologiyalarni qo'llash hamda ulardagi mavjud ijobiy salohiyatni yuzaga chiqarishda barcha zarur shart-sharoitlarni yaratishning ilmiy-metodologik asoslarini yangi davrga moslashtirib borishni taqozo etadi.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Yoshlar siyosatini o'rganishga oid turli yondashuvlarning mavjudligi va ayrim hollarda bir-biridan farqlanishi ushbu fenomenning ko'ptomonlama va murakkab ekanidan dalolat beradi. Mazkur tadqiqot ishida "yoshlar siyosati" tushunchasining siyosiy fanlar tizimida shakllanishi jarayonlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan, xususan o'rta asrlar Sharq mutafakkirlari hamda zamonaviy dunyodagi o'zbekistonlik va xorijiy olimlarning ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlari o'zaro uyg'unlashtirilgan holda tadqiq etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan ishlab chiqilgan O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi va 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi, "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi farmonlarida belgilab berilgan va yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda yangicha yondashuvni tatbiq qilishga oid strategik g'oya va yo'nalishlar mazkur tadqiqotning ilmiy-metodologik asosi bo'lib xizmat qilgan<sup>4</sup>.

Ta'kidlash lozimki, yoshlar siyosatini tadqiq qilishga oid manbalar chuqur tarixiy ildizlarga ega. Ushbu yo'nalishdagi izlanishlarni antik davr, o'rta asrlar, xususan Sharq mutafakkirlari va zamonaviy dunyo olimlari asarlarida uchratish mumkin. Xususan, Markaziy Osiyo hududida yashab ijod etgan hamda ijtimoiy-siyosiy tafakkur rivojiga o'z hissasini qo'shgan qomusiy mutafakkirlar – Abu Nasr Forobiy, Kaykovus, Nizomulmulk, Alisher Navoiy, M.Behbudiy, A.Avloniy asarlarida yosh avlod vakillarining komillikka erishishi, yoshlar ongida ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlar, ta'lim-tarbiya, insonparvarlik, adolatlilik g'oyalarini shakllantirish va rivojlantirish masalalari yoritilgan<sup>5</sup>. Shuningdek, qadimgi yunon mutafakkirlari Arastu va Aflotun asarlarida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash to'g'risida fikrlar mavjud. Arastu qonunlarni ishlab chiqishda yoshlar tarbiyasi masalasiga jiddiy e'tibor qaratish lozim, aks holda bunday davlatning kelajagi bo'lmaydi deb hisoblagan<sup>6</sup>. Bunda yoshlar muayyan davlat rivojini ta'minlovchi kuch sifatida e'tirof etilganini ko'rish mumkin. Ushbu yondashuv keyinchalik davlat siyosatida yoshlarning o'rni va ahamiyatini aniqlashning nazariy-metodologik asoslari uchun zamin bo'ldi. Shunga o'xshash yondashuv Aflotun qarashlarida ham uchraydi<sup>7</sup>.

O'rta asrlarda mamlakatimiz hududida yashab ijod etgan Sharq mutafakkirlari — Abu Ali ibn Sino, Xorazmiy Alisher Navoiy, Abu Nasr Forobiy, Maxmud Qoshg'ariy yirik qomusiy olimlar asarlarida ko'proq yosh avlodni yetuk

---

<sup>4</sup> *Mirziyoyev Sh.M.* Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. -Toshkent: O'zbekiston, 2016. – 64 b.; Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. -Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 48 b.; Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib - intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. - Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 104 b.; Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 488 b.; Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2018. – 592 b.; Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – Toshkent: O'zbekiston, 2018. – 508 b.

<sup>5</sup> *Forobiy Abu Nasr.* Fozil odamlar shahri. – T.: A.Qodiriy nomidagi nashriyot, 1993; Kaykovus. Qobusnoma – T.: A.Qodiriy nomidagi nashriyot, 1994; Nizomulmulk. Siyosatnoma. – T.: Yangi asr avlodi, 2008; Alisher Navoiy. Hayratul abror. – T.: G'.G'ulom nashriyoti. 1989; Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – T.: Ma'naviyat, 1999; Fitrat A. Najot yo'li. – T.: Sharq, 2001; Avloniy A. Tanl. asarlar. 2 jild. – T.: Ma'naviyat, 1997.

<sup>6</sup> *Аристотель.* Политика. М.: Мысль, 1983. 628 с.

<sup>7</sup> *Платон.* Государство. М.: Мысль, 1994. 342 с.

va barkamol qilib tarbiyalash, yoshlarda mustahkam ma'naviy qadriyatlarni shakllantirish hamda ta'lim-tarbiya berish orqali komil inson, adolatli jamiyat va davlat yaratish masalalari o'rin olgan. Qayd etish lozimki, antik va o'rta asrlardan tortib bugungi kungacha barkamol avlod tushunchasi o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Yusuf Xos Hojib uni "tugal er", Forobiy "fozil kishi", tasavvuf namoyandalari "komil inson" deb atagan<sup>8</sup>. Abu Ali Ibn Sino o'zining "Donishnoma" asarida bola tarbiyasi uchun avvalo ota-ona mas'ulligini ta'kidlaydi. Shuningdek, farzand tarbiyasida atrof-muhitning ham ta'siri ulkanligi xususida shunday deydi: "yosh bola ta'lim-tarbiya oladigan joyda odob-axloqli, turish-turmushi namunali bolalar bo'lishi lozim. Zero, yosh bola har bir narsani ularga taqlid qilib o'rganadi va ular bilan do'st bo'ladi"<sup>9</sup>.

Buyuk shoir va mutafakkir, atoqli davlat va jamoat arbobi Alisher Navoiy asarlarida komil insonni kamol toptirishda falsafiy dunyoqarashga alohida e'tibor qaratiladi. Jamiyatda komil insonni shakllantirish, kishilarining salomatligi, jismoniy baquvvatligi borasida Navoiy yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarga alohida e'tibor qaratgan. Jumladan, Xamsa asarida Farhod obrazi orqali yoshlarning jismoniy-aqliy qobiliyatlarini mehnat bilan uyg'unlashtirish lozimligi hamda mehnat barcha boyliklarning negizi ekanligini badiiy shaklda tasvirlab bergan<sup>10</sup>. Mahmud Qoshg'ariy ham o'z asarlarida yosh avlodning ma'naviy-ma'rifiy etuk bo'lishi, jumladan, ularning olimlar suhbatiga intilish, kechirimli bo'lish, odobsizlik qilganlar to'g'risida sukut saqlash, xulq go'zalligiga e'tibor berish kabi shaxsiy sifatlarga ega bo'lishlari lozimligini ta'kidlagan<sup>11</sup>. Mahmud Qoshg'ariyning ushbu fikrlari bugungi kunda yosh avlodni tarbiyalash, ularga ta'lim berishda qimmatbaho manba hisoblanadi.

Yoshlar masalasini o'rganishga oid dastlabki konsepsiyalar XX-asr boshlarida AQSh (G.Stenli Xoll) va Germaniyada (Sh.Byuller, E.Shpranger) vujudga kelgan. Bunda yoshlarning — avlodlar almashinuvining bog'lovchisi va davomchisi sifatida madaniy, psixologik xususiyatlariga e'tibor qaratilgan. Keyinchalik yoshlarning ijtimoiy-siyosiy xususiyatlari, jumladan davlat va jamiyat munosabatlaridagi ahamiyati masalalari shakllandi. Buning asosida yoshlarni har tomonlama o'rganish, tadqiq etishga qaratilgan integrativ, kompleks yondashish zarurati vujudga keldi.

XX-asrning ikkinchi yarmidan boshlab, olimlar izlanishlarida dunyoda inson kapitalini rivojlantirish, aynan inson har qanday taraqqiyotning asosi ekanligi to'g'risidagi qarashlar, yondashuvlar kuzatila boshlandi. Bunday tadqiqotlarda yoshlar masalasi, yoshlarga oid siyosat, muayyan hudud taraqqiyotida ularning o'rni, shu bilan birgalikda ularning intellektual salohiyati va imkoniyatlaridan samarali foydalanish yo'nalishlariga urg'u berilgan. Xususan, amerikalik olimlar T.Parsons, D.Iston va G.Almondlar tomonidan ishlab chiqilgan tizimli yondashuv

<sup>8</sup> *Erkayev A.* Yangi O'zbekiston: mo'ljal – Uchinchi Renessans. T.: "Ma'naviyat", 2021. – B. 19-20.

<sup>9</sup> *Yusupov A.* G'amxo'rlik va e'tiborning yuksak namunasi // uza.uz/uz/posts/gamxorlik-va-etiborning-yuksak-namunasi\_252954

<sup>10</sup> *G'aybullayev O.* Shaxs ma'naviy kamoloti va estetik madaniyat. –T.: Chashma print, 2008. B 94.

<sup>11</sup> O'zbekiston pedagogikasi antologiyasi: Ikki jildlik. Birinchi jild. / Tuzuvchi mualliflar: K. Hoshimov, S.Ochil; tahrir hay'ati: M.Xayrullayev va boshqalar. – T.: "O'qituvchi, 1995. B.186.

yoshlar siyosatini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi<sup>12</sup>. Uning diqqatga sazovorligi shundaki, ushbu yondashuv yoshlar siyosatini alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganishni taklif etadi. Mazkur uslub yoshlar siyosatining tarkibiy qismlarini vertikal (mintaqaviy, mahalliy) va gorizontal (davlat, jamiyat) mustaqil o'rganish lozimligini taqozo etadi. Shuningdek, mazkur yondashuv yoshlar siyosatini amalga oshiruvchi asosiy siyosiy institutlar (siyosiy partiyalar, harakatlar, jamoat tashkilotlari) faoliyatini ularning vazifa va vakolatlari nuqtai nazaridan tahlil qilish imkonini beradi.

Tuzilmaviy-vazifaviy konsepsiyasi D.Bell, G.Markuze, R.Merton, T.Parsons, V.Rayx kabi olimlar tadqiqotlariga asoslanadi. Bunda yoshlar jamiyatning ijtimoiy-demografik guruhi sifatida tahlil qilinadi. Ushbu konsepsiyaning muhim jihatlaridan biri, unda yoshlarning jamiyatdagi o'zgarishlarga, shu jumladan qaror qabul qilish jarayoniga bevosita ta'sir qila olishi salohiyati ochib berilgan<sup>13</sup>. Yoshlarning jamiyatdagi o'rni, ta'lim va tarbiya masalalarini o'rgangan olim K.Mangeym o'z tadqiqotlarida yoshlar salohiyatidan jamiyat taraqqiyotida foydalanish zarurligini ta'kidlagan<sup>14</sup>.

Zamonaviy dunyoda xorijlik olimlar izlanishlarida yoshlarga oid davlat siyosatining va barqaror taraqqiyot konsepsiyasining asoslari, yo'nalishlari, xorijiy davlatlarda yoshlar sohasida amalga oshirilgan islohotlar, ularning samaradorligiga ta'sir qiluvchi turli omillar, yoshlar bilan ishlash borasida zamonaviy texnologiyalar va yondashuvlar mazmun-mohiyati ochib berilgan. Bu borada G.Brundtland, A.Ursul, A.Romanovich, I.Ilinskiy, G.Balixin, T.Kostina, N.Mamedov, N.Moiseyev, K.Belousov, A.Pasenov, X.Gizatullin, V.Troiskiy, O.Grishkevich, D.Kalyujnaya, A.Shakirov, K.Borishpoles, V.Pavlovskiy, L.Vlasenko, T.Parsons, Ye.Malikova, K.Mangeym, G.Keldiyarova, A.Sokolov, A.Zelenin, K.Kanunnikov, S.Chirun, C.Nissen, G.Pudar, L.Suurpaa, H.Williamson, M.Zentnerlarning tadqiqotlarini ko'rsatish mumkin<sup>15</sup>.

O'zbekiston olimlari tomonidan yoshlarga oid davlat siyosati, jumladan yoshlarda siyosiy madaniyatni shakllantirish, mustaqillik yillarida yoshlarga oid davlat siyosatining shakllanishi jarayonlari, ular orasidan rahbar kadrlarni tayyorlash, yoshlar masalasining falsafiy-siyosiy jihatlari hamda barqaror taraqqiyotni ta'minlashda yoshlar omili masalalarining ayrim jihatlari — Sh.Paxrutdinov, N.Jo'rayev, S.Otamurodov, X.Odilqoriyev, Sh.G'oyibnazarov, S.Jo'rayev, Q.Quranboyev, R.Jumayev, I.Ergashyev, A.Erkayev, M.Bekmurodov, G.Tulenova, M.Yuldashev, Z.Qodirova, Sh.Ermatov, A.Xolbekov, J.Mavlonov, L.Tangriyev, E.Kadirov, O.Rahmatov, A.Xolmaxmatovlarning asarlarida konseptual tahlil qilingan. Globallashuv sharoitida ma'naviyat masalalari, yoshlar ma'naviyati, ma'naviy qadriyatlar va ma'naviy yangilanishning xususiyatlari mustaqillikning dastlabki yillarida

<sup>12</sup> *Qarang:* Парсонс Т. Система современных обществ / Пер. с англ. Л.Седова и А.Ковалева. Под ред. М. Ковалевой. — М.: Аспект Пресс, 1998. — 270 с. Истон Д. Категории системного анализа политики // Политология: Хрестоматия. Сост.: проф. М.Василик, дос. М.Вершинин. М.: Гардарики, 2000. // [grachev62.narod.ru/hrest/chapt27.htm#s](http://grachev62.narod.ru/hrest/chapt27.htm#s). Алмонд Г. Верба С. Гражданская культура и стабильность демократии // [www.civisbook.ru/files/File/1992-4-Almond\\_Verba.pdf](http://www.civisbook.ru/files/File/1992-4-Almond_Verba.pdf).

<sup>13</sup> *Маликова Е.* Современные концептуальные теории молодежи // Приволжский научный вестник. Социологические науки. № 5-2 (45) – 2015. С. 91-93.

<sup>14</sup> *Мангейм К.* Избранное. Диагноз нашего времени. – М.: Юристь, 1994. С. 443.

<sup>15</sup> Bu va boshqa adabiyotlar bilan dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati qismida tanishish mumkin.

T.Mahmudov, J.Tulenov, S.Shermuhamedov, A.Jalilov, E.Yusupov kabi atoqli olimlar tomonidan o'rganilgan bo'lsa, hozirgi ma'naviy yangilanishning turli jihatlarini B.Aliyev, S.Berdiqulov, D.Norqulov, A.Umarov, Sh.Madayeva, S.Mamashokirov, J.S.Ramatov, M.Qahharova, G.Tulnova, S.Raximov va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan.

Taniqli siyosatshunos olim Sh.Paxrutdinov tadqiqotlarida, jumladan "Tahdid – halokatli kuch", "Milliy manfaatlar va boshqaruv mas'uliyati", "Ogohlik va hushyorlik tamoyillari", "Barqaror taraqqiyot va rahbar mas'uliyati" asarlarida jamiyatning tahdidbardoshligini mustahkamlash mavzusiga alohida e'tibor qaratilgan<sup>16</sup>. Yoshlar qatlami, ularning hayoti va faoliyatiga doir ayrim masalalar N.Temirova, Sh.Ermatov, T.Qurbonov, R.Qurbonov, D.Raximova, G.Tillayeva kabi tadqiqotchilarning nomzodlik dissertatsiyalarida o'z ifodasini topgan. N.Temirova o'z nomzodlik dissertatsiyasida O'zbekiston yoshlari ma'naviy qiyofasini shakllantirishda umuminsoniy va milliy qadriyatlar dialektikasini o'rganagan. Sh. Ermatovning nomzodlik ishida mamlakatimiz qishloq yoshlarining siyosiy jarayonlarda qatnashuvi natijalari, bu boradagi muammo va yechimga e'tibor qaratilgan bo'lsa, R. Qurbonov o'z nomzodlik dissertatsiyasida yoshlarda harbiy vatanparvarlikni tarbiyalashda milliy g'oyaning o'rni va ahamiyatini ijtimoiy-falsafiy jihatlarini tahlil qilgan. M. Quronov, A. Qodirov, Sh. Akramovalar tomonidan "Yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish" monografiyasida yoshlarni etib tarbiyalash, ularda mafkuraviy immunitetni shakllantirish va yot g'oyalar ta'siriga tushib qolishining oldini olish kabi masalalar tahlil etilgan. F. Yuldasheva ilmiy tadqiqotlarida globallashtirish sharoitida ma'naviy yangilanishning o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan. G. G'affarova axborotlashgan jamiyatda ma'naviyatdagi o'zgarishlar, yangilanayotgan O'zbekistonda inson kapitalini rivojlantirishda ma'naviyatning o'rnini yoritgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning jadidlar merosini o'rganishga bag'ishlangan Xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yo'llagan murojaatida shunday degan edi: Biz xalqaro ilmiy markazlar, dunyo olimlari bilan hamkorlikda jadidlar faoliyatini yanada chuqur o'rganishni dolzarb vazifa deb hisoblaymiz. Bu noyob meros orqali bugungi kunda insoniyatni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga to'g'ri javob topa olamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ'ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi<sup>17</sup>.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya ishi O'zbekiston Milliy universitetining PZ-20170928696-son "O'zbekistonda islohotlar jarayonini tahlil etish va amalga oshirishning konseptual-falsafiy metodologiyasi" mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** O'zbekistonda amalga oshirilayotgan yoshlar siyosatini kompleks yondashuv asosida ilmiy-konseptual jihatdan tahlil qilish,

---

<sup>16</sup> Paxrutdinov Sh, Jo'rayev T. va boshq. Milliy manfaatlar va boshqaruv mas'uliyati. Ogohlik va hushyorlik tamoyillari. – T.: G'ulom nomidagi NMIU, 2008. 456 b.; Paxrutdinov Sh. Barqaror taraqqiyot va rahbar mas'uliyati. –T.: Akademiya, 2011. - 304 b.; Paxrutdinov Sh. "Tahdidbardoshlik" – hozirgi zamon jamiyatining muhim sharti // Fuqarolik jamiyati. -Toshkent, 2010. -№ 2.

<sup>17</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Jadidlar merosini o'rganishga bag'ishlangan Xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yo'llagan murojaati // [president.uz/uz/lists/view/6007](http://president.uz/uz/lists/view/6007)

uning strategik yoʻnalishlarini ilgʻor zamonaviy texnologiyalarni qoʻllash orqali takomillashtirishga qaratilgan amaliy taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari** quyidagilarni oʻz ichiga oladi:

yoshlar siyosati bilan bogʻliq nazariy va uslubiy yondashuvlarni tadqiq qilish;  
jamiyat taraqqiyotini taʼminlashda yoshlarning oʻrni va roliga oid yondashuvlar retrospektiv va konseptual tahlil qilish;

yoshlar siyosatining shakllanish bosqichlari va evolyusiyasini ochib berish;

yoshlar siyosatini izchil va samarali amalga oshirishda kompleks yondashuvning ahamiyatini asoslash;

zamonaviy dunyoda yoshlarga oid davlat siyosati va unga taʼsir qiluvchi turli omillarni tahlil qilish;

globallashtirish sharoitida yoshlar siyosatini amalga oshirishning oʻziga xos jihatlari va konstruktiv mexanizmlarini ochib berish;

Oʻzbekistonda yoshlar siyosati doirasida amalga oshirilgan ishlar dinamikasini tasniflash va tavsiflash;

Mamlakatimizda yoshlar siyosatining shakllanish bosqichlari va institutsionallashtirish jarayonlarini tahlil qilish;

yoshlarni maʼnaviy-maʼrifiy jihatdan etuk qilib tarbiyalash bilan bogʻliq ishlarni samaradorligini taʼminlash nuqtai nazardan tahlil qilish;

yoshlarda turli zamonaviy tahdidlarga qarshi tura oladigan mafkuraviy immunitetni shakllantirishning obyektiv zaruratini asoslash;

yoshlar siyosatini amalga oshirishda davlat va fuqarolik jamiyati institutlari hamkorligining asosiy yoʻnalishlarini tahlil qilish va baholash;

mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar va oʻzgarishlarda yoshlar manfaat va ehtiyojlarining aks etishini tahlil qilish;

yoshlar siyosatining mamlakat milliy manfaatlari bilan oʻzaro bogʻliqligini ochib berish;

Oʻzbekistonda yoshlar siyosati doirasida amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligini yanada oshirishga qaratilgan asosiy yoʻnalishlarni aniqlash va istiqbollarni belgilashga doir takliflar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** mamlakat taraqqiyotini taʼminlashda yoshlar siyosatini amalga oshirish hamda ushbu jarayonda yoshlarning rolini kuchaytirishga oid konseptual yondashuvlar va ijtimoiy-siyosiy jarayonlar tashkil etadi.

**Tadqiqotning predmeti** yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga kompleks yondashuv va uning strategik yoʻnalishlarini belgilashda siyosiy texnologiyalarni takomillashtirish tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda tizimlilik, xronologik davrlashtirish, qiyosiy (komparativistik), tuzilmaviy va funksional, kontent-tahlil, ratsional tanqidiy, ekspert baholash, anketa soʻrovi, statistik va empirik tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

globallashtirish sharoitida demokratik jarayonlarning davlat va jamiyat barqarorligiga taʼsiri (pozitiv/negativ +mezo/mego) hamda tahdidlar, plyuralizm va keskin raqobat muhitidagi hozirgi zamon yoshlari xususiyatlarini primitiv

baholashdan holi tahlil qilish orqali yoshlarga oid davlat siyosatiga integrativ+kompleks yondashuvni qo'llash zarurati ochib berilgan;

yoshlarni tahdidlarga bardoshli, mamlakat taraqqiyoti uchun daxldor shaxs sifatida tarbiyalashda uzviy (ierarxik-kontent) - uzluksiz (doimiy) shakldagi kompleks yondashuvning differensial mexanizmlarini joriy qilish - ulardagi passiv fuqarolik pozitsiyasi va ijtimoiy-siyosiy vaziyatlardagi beqaror bixevioral hamda ratsional rolini ma'naviyatli shaxs sifatida namoyon etishiga olib kelishi aniqlangan;

bunyodkor va buzg'unchi mafkuralar murosasizligi sharoitida yoshlar ongida dunyoviylik va diniylikni uyg'unligi asosidagi e'tiqod, mafkuraviy immunitet va identiklikni shakllantirish, ularda siyosiy ong va siyosiy madaniyatning o'sishiga erishish, umuminsoniy qadriyatlar tizimiga asoslangan milliy g'oyani mustahkamlash orqali milliy mafkurani legitimligi hamda yetakchiligini ta'minlash asoslantirilgan;

yangi o'zgarish va islohotlar sharoitida yoshlar muammolarining samarali yechimini topishda obyektiv va subyektiv omillar ta'sirini inobatga olgan holda yoshlarning bugungi ijtimoiy qiyofasini (portret) yaratish va muntazam yangilab borish zarurati dalillangan;

yoshlarga oid maqsadlarni amalga oshirishda yaqin, o'rta va uzoq istiqboldagi dasturlar asosida toifalashgan doimiy monitoringni tatbiq qilish, ushbu jarayonda davlatning boshqaruv organlari bilan fuqarolik jamiyati institutlarining institutsional integratsiyasini ta'minlash orqali preventiv chora-tadbirlarni qo'llashning ahamiyati va pragmatik yondashuvning samaradorligi isbotlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilarda namoyon bo'lgan:

O'zbekistonning barqaror rivojlanishini ta'minlashda yoshlar siyosatiga doir islohotlar samaradorligini yanada oshirish borasida ishlab chiqilgan asosiy yo'nalishlar va ularni tatbiqiga doir chora-tadbirlarni nazarda tutuvchi takliflar berilgan;

zamonaviy dunyoda kuzatilayotgan turli transformatsion jarayonlarning yoshlarga ta'sirini minimallashtirishning samarali usullari va konstruktiv mexanizmlari aniqlangan;

Yangi O'zbekiston sharoitida amalga oshirilayotgan islohotlar va o'zgarishlarda yoshlar manfaat va ehtiyojlarining aks etishining tendensiyalari tahlil qilingan.

Mamlakatda yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini yanada oshirish va takomillashtirish yuzasidan ilmiy asoslangan va amaliy xarakterga ega dolzarb taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi.** Tadqiqotda foydalanilgan adabiyotlar va qonun hujjatlari rasmiy manbalardan olingani, respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plamlari, Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatidagi jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, o'tkazilgan sotsiologik so'rovlar, rasmiy statistik ma'lumotlar, siyosiy fanlarda mavjud ilmiy-nazariy qarashlar, yondashuvlar, xulosalar, taklif hamda tavsiyalarining amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishning nazariy asoslarini Yangi O‘zbekiston sharoitida va zamonaviy tendensiyalarni hisobga olgan holda rivojlantirish imkoniyati mavjudligi bilan belgilanadi. Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan yoshlar siyosatini takomillashtirish bilan bog‘liq siyosiy-huquqiy va konseptual hujjatlarni ilmiy-nazariy jihatdan boyitishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiyada tahlil qilingan jihatlar va fikr-mulohazalar yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va ushbu yo‘nalishdagi ijtimoiy-siyosiy islohotlarni takomillashtirish orqali mamlakatning barqaror rivojlanishiga muayyan darajada hissa qo‘shishida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, dissertatsiyada ilgari surilgan konseptual g‘oyalardan ma‘naviyat va milliy g‘oya targ‘iboti, oila, inson kapitalini rivojlantirish bilan bog‘liq fanlar doirasida hamda yoshlar orasida o‘tkaziladigan turli ijtimoiy so‘rovlar metodologiyasini shakllantirishda samarali foydalanishi mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan ilmiy-nazariy xulosa va takliflar asosida quyidagilarga erishildi:

globalashuv sharoitida demokratik jarayonlarning davlat va jamiyat barqarorligiga ta‘siri (pozitiv/negativ +mezo/mego) hamda tahdidlar, plyuralizm va keskin raqobat muhitidagi hozirgi zamon yoshlari xususiyatlarini primitiv baholashdan holi tahlil qilish orqali yoshlarga oid davlat siyosatiga integrativ+kompleks yondashuvni qo‘llashga oid xulosalardan O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasining 2024-yildagi ish rejasi “Yoshlarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi rolini oshirish, startap va g‘oyalarni qo‘llab-quvvatlash” yo‘nalishining 4.3-bandida ko‘rsatilgan vazifalar ijrosini ta‘minlashda foydalanildi. (O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi Markaziy Kengashining 2024-yil 25-apreldagi 1-177-son ma‘lumotnomasi). Mazkur xulosalar partiyaning boshlang‘ich partiya tashkilotlari faollari hamda yoshlar qanoti tuzilmasi vakillari uchun o‘tkaziladigan siyosiy-ma‘rifiy soatlarda yosh avlod ijtimoiy-siyosiy dunyoqarashini kengaytirish hamda siyosiy madaniyatini yuksaltirishda konseptual asos sifatida foydalanish, partiya saylovoldi dasturlarining asosiy yo‘nalishlarini ishlab chiqish va uning samaradorligiga ta‘sir qiluvchi omillarni tasniflashga xizmat qilgan;

yoshlarni tahdidlarga bardoshli, mamlakat taraqqiyoti uchun daxldor shaxs sifatida tarbiyalashda uzviy (ierarxik-kontent) - uzluksiz (doimiy) shakldagi kompleks yondashuvning differensial mexanizmlarini joriy qilish - ulardagi passiv fuqarolik pozitsiyasi va ijtimoiy-siyosiy vaziyatlardagi beqaror bixevioral hamda ratsional rolini ma‘naviyatli shaxs sifatida namoyon etishiga olib kelishiga oid taklifdan Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimidagi respublika oliy ta‘lim muassasalarining “60310700-Siyosatshunoslik” ta‘lim yo‘nalishi malaka talabi mazmunini shakllantirish hamda “Fuqarolik jamiyati”, “Davlat boshqaruvi asoslari”, “Siyosatshunoslik” fanlaridan darsliklarni tayyorlash, o‘qitishda va “Axborot-tyutorlik soati” mazmuni va metodik ta‘minotini takomillashtirishda foydalanilgan (Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi talaba va o‘quvchilarni ijtimoiy faolligini oshirish markazining 2024-yil 6-maydagi ITID-1/1-02-son

ma'lumotnomasi). Natijada, vazirlik tizimidagi respublika oliy ta'lim muassasalari talabalari va magistrleri uchun o'tiladigan siyosiy fanlardan o'quv adabiyotlari, uslubiy-metodik ishlanmalari hamda fan dasturlarini ishlab chiqilishi yoshlarning siyosiy, huquqiy ongi va madaniyatini oshishiga xizmat qilgan;

bunyodkor va buzg'unchi mafkuralar murosasizligi sharoitida yoshlar ongida dunyoviylik va diniylikni uyg'unligi asosidagi e'tiqod, mafkuraviy immunitet va identiklikni shakllantirish, ularda siyosiy ong va siyosiy madaniyatning o'sishiga erishish, umuminsoniy qadriyatlar tizimiga asoslangan milliy g'oyani mustahkamlash orqali milliy mafkurani legitimligi hamda yetakchiligini ta'minlashga kompleks yondashuv va vositalarni qo'llash borasidagi taklif va tavsiyalardan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2023-yil uchun chora-tadbirlar dasturining 10-yo'nalishida belgilangan "Yangi zamonaviy ta'sirchan targ'ibot texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy etish" 50-bandi "Mamlakatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, targ'ibot-tashviqot ishlarining zamonaviy va ta'sirchan usullarini ishlab chiqish hamda hududlarning o'ziga xosligidan kelib chiqib, yangi mafkuraviy texnologiyalarni keng joriy etish" mavzusidagi targ'ibot ishlarini amalga oshirishda foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2024-yil 4-iyundagi 813-son ma'lumotnomasi). Natijada, yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishni kompleks yondashuv asosida ilmiy-konseptual jihatdan tahlil qilish, vazifalar ijrosini ta'minlashda strategik yo'nalishlari biri sifatida mafkuraviy munosabatlarning milliy manfaatlarga mos modellarini "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" g'oyasidan kelib chiqqan holda yoshlar ongida milliy g'oya va mafkurani qaror toptirishga oid tadbirlar, debatlarining maqsadli o'tishiga xizmat qilgan.

yangi o'zgarish va islohotlar sharoitida yoshlar muammolarining samarali yechimini topishda obyektiv va subyektiv omillar ta'sirini inobatga olgan holda yoshlarning bugungi ijtimoiy qiyofasini (portret) yaratish va muntazam yangilab borish zaruratiga oid taklifdan "Ijtimoiy fikr" respublika jamoatchilik fikrini o'rganish Markazining "O'zbekiston yoshlarining bugungi ijtimoiy qiyofasini (portret) yaratish va muntazam yangilab borish bilan bog'liq tadqiqot materiallarini tayyorlashda foydalanilgan ("Ijtimoiy fikr" respublika jamoatchilik fikrini o'rganish Markazining 2023-yil 26-iyuldagi 01-16/123-son ma'lumotnomasi). Natijada yoshlar bilan ishlashda bir xil, yaxlit substansiya tarzidagi yondashuvdan holi ularning istak va imkoniyatlari, ehtiyoj va manfaatlarining o'zaro farqi sabab, jamiyatdagi jarayonlar, atrof-muhitning (hudud, oila omillari) ta'sirini inobatga olib, tanlama/differensial shakldagi texnologiyalarni joriy etish va uni izchil takomillashtirib borishga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

yoshlarga oid maqsadlarni amalga oshirishda yaqin, o'rta va uzoq istiqboldagi dasturlar asosida toifalashgan doimiy monitoringni tatbiq qilish, ushbu jarayonda davlatning boshqaruv organlari bilan fuqarolik jamiyati institutlarining institutsional integratsiyasini ta'minlash orqali preventiv chora-tadbirlarni qo'llashning ahamiyati va pragmatik yondashuvning samaradorligiga oid taklifdan O'zbekiston yoshlar ittifoqining amaliy faoliyatida foydalanilgan (O'zbekiston yoshlar ittifoqining Markaziy kengashining 2024-yil 8-maydagi 04-13/453-son ma'lumotnomasi). Natijada O'zbekiston yoshlar ittifoqining faoliyatida yoshlarga oid davlat siyosatining samaradorligini yanada oshirish maqsadida doimiy

monitoring mexanizmini yaratish, vazifalar ijrosi ustidan nazoratni o‘rnatishga oid harakatlar algoritmini belgilash, obyektiv vaziyatni baholash, fuqarolik jamiyati institutlarini faol jalb qilish hamda yosh avlod muammolarini ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy jihatdan tahlil etish orqali echim topish imkoniyatlarini oshirgan.

**Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 10 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan, 3 ta xalqaro va 7 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalardagi ma’ruzalarda bayon etilgan va aprotatsiyadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 24 ta ilmiy ish, shu jumladan, 1 ta monografiya, 1 ta o‘quv qo‘llanma, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 15 ta maqola, ulardan 10 tasi respublika va 5 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan tashkil topgan. Dissertatsiyaning asosiy matni 242 betdan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan, mavzu bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi va muammoning o‘rganilganlik darajasi yoritilgan, ishning maqsad va vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti aniqlangan, tadqiqot usullari, dissertatsiyaning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, e’lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma’lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Yoshlar siyosati va uni amalga oshirishning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida tadqiqotchi tomonidan yoshlar siyosatini o‘rganishga oid konseptual yondashuvlar, zamonaviy dunyoda kuzatilayotgan turli o‘zgarishlarning yoshlar siyosatiga ta’siri va umuman yoshlar siyosatining yaxlit davlat siyosati tizimining tarkibiy qismi sifatida muhim o‘rin egallashining mazmun-mohiyati ochib berilgan. Shuningdek, “yoshlar siyosati” tushunchasining siyosiy fanlar tizimida shakllanishi jarayonlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinib, o‘rta asrlar Sharq mutafakkirlari hamda zamonaviy dunyodagi o‘zbekistonlik va xorijiy olimlarning ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlari o‘zaro uyg‘unlashtirilgan holda tadqiq etilgan.

Ayni vaqtda, yoshlar siyosatiga oid turli davrlardagi konseptual yondashuvlar umumlashtirilgan va tizimlashtirilgan. Xususan, bunda dunyoning ayrim davlatlarida turli demografik o‘zgarishlarning (masalan, yoshlar va qariyalar o‘rtasidagi miqdoriy nomutanosiblikning ortib borayotgani, yoshlar qiyofasining o‘zgarib borish tendensiyalari va h.k.) kuzatilayotgani va ularning yoshlar siyosatiga ta’siri tahlil qilingan. Shuningdek, mazkur bobda bugungi kunda yoshlar siyosati qanday bo‘lishi kerak, turli transformatsion jarayonlarning unga salbiy ta’siriga qarshi qanday mexanizmlar mavjud va umuman zamonaviy dunyoda

yoshlar siyosati amalga oshirilishining ilmiy-nazariy asoslari hamda paradigmalari qaysi jihatlardan iborat kabi savollarga javob berilgan. Ayni paytda, yoshlar siyosatini amalga oshirishga kompleks yondashuvning zarurati va ahamiyati hamda bu jarayonda jamiyat va davlat o'zaro munosabatlarining o'zgarib borish tendensiyalari, uning ijobiy va salbiy jihatlari yoritilgan.

Bu borada tadqiqotchi yoshlar siyosati jamiyatning turli soha va yo'nalishlarida yoshlarning ehtiyoj va manfaatlarini qonun va ijtimoiy adolat mezonlari asosida qondirishni nazarda tutadi degan fikrni ilgari suradi. Bunday yondashuv mazmunini jamiyat va davlat munosabatlarining o'zaro muvofiqlashuvi hamda uning yaxlit taraqqiyot uchun xizmat qilishi tashkil etadi.

O'rganilgan ilmiy manbalarda yirik olimlar, mutaxassislar tomonidan yoshlar siyosatining nazariy-metodologik asoslari va konseptual shakllanishi, uning o'ziga xos xususiyatlariga jiddiy e'tibor qaratilgan. Ta'kidlash lozimki, yoshlar siyosatini tadqiq qilishga oid manbalar chuqur tarixiy ildizlarga ega. Ushbu yo'nalishdagi izlanishlarni antik davr, o'rta asrlar, xususan Sharq mutafakkirlari va zamonaviy dunyo olimlari asarlarida uchratish mumkin.

Mavzu doirasida ko'plab manbalarga tayangan holda muallif yosh avlod shakllanishining (*AQShlik olimlar Neyl Xou i Uilyam Shtrauslarning "avlodlar nazariyasi" asosida*) davriy bosqichlarini tahlil qilgan va ular o'zaro bir-biridan farq qilishiga qaramasdan ularning o'zaro o'xshash jihatlari mavjud, degan ilmiy xulosaga kelgan.


Bunda olimlar davriy xususiyatlar sifatida AQShning rivojlanish bosqichlarida jamiyatdagi qadriyatlarining o'zgarib borish tendensiyalarini e'tirof etishadi<sup>18</sup>. Unga ko'ra, hozirgi yoshlar, ya'ni 1995-2012-yillarda tug'ilganlar — Z avlod (bu davr raqamli texnologiyalar rivoji bilan bog'lanadi). Amerikalik psixolog Dj.Tvendj bu avlodni Internet avlodi — iGen (*Internet generation*) deb atashni taklif qiladi. Shuningdek, 1980-1994-yillarda tug'ilganlar milleniallar, 1965-1979-yillardagilar X avlod va 1946-1964-yillardagilar "bebi bumer"lar (Ikkinchi jahon urushidan keyingi tug'ilish koeffitsientining ortishi bilan izohlanadi) deb ataladi<sup>19</sup> (1-rasm).

Ahamiyatlisi, muallif mavzu doirasidagi turli davrdagi manbalarni o'rganib, mutaxassislar fikriga o'zining shaxsiy yondashuvini bildirish orqali ilmiy bahs-munozaraga kirisha olgan. Jumladan, yoshlar siyosatini o'rganishda olimlarning bixevioristik (xulq-atvor), qadriyatlarga asoslangan, institutsional, tizimli yondashuv va boshqa uslublar asosida kompleks yondashuvning obyektiv zaruratini ochib bergan. Shu bilan birga, muallif fikricha, yoshlar siyosatini o'rganishga oid turli yondashuvlarning mavjudligi va ayrim hollarda bir-biridan farqlanishi ushbu fenomenning ko'ptomonlama va murakkab ekanidan dalolat beradi. O'rganishlar asosida dissertant zamonaviy dunyoda shaxs, jamiyat va davlat munosabatlarining yangi bosqichga o'tishi (jumladan, globallashuv hamda axborot texnologiyalari ta'sirida) natijasida ijtimoiy jarayonlarning murakkablashuvi va tezlashuvi yoshlar siyosatini o'rganishga oid yondashuvlarda o'zaro munosabatlarning yangi paradigmasini taqozo etayotganini ta'kidlagan.

<sup>18</sup> Strauss W., Howe N. Generations: The History of America's Future, 1584 to 2069. – New York: William Morrow & Company, 1991. – P. 538.

<sup>19</sup> Поколение iGen: ученые обнаружили ахиллесову пятю современной молодежи //ria.ru/20190126/1549897539.html

### Yosh avlod shakllanishining davriy bosqichlari



BMTning amaldagi Bosh kotibi Antoniu Guterrish “tinchlik, faol iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy adolat, bag‘rikenglikni ta’minlash — bularning barchasi va yana ko‘p narsalar yoshlar imkoniyatlaridan foydalanish bilan bog‘liq” deya ta’kidlaydi<sup>20</sup>.

Yoshlar siyosati amalda davlatlarning taraqqiyotini belgilab beruvchi strategik dasturlarning eng muhim indikatoridir. Zero, davlat siyosatining boshqa yo‘nalishlaridan farqli ravishda yoshlar siyosati yosh avlodning muayyan jamiyat va zamonaviy dunyoga integratsiyalashuvini ta’minlaydi. Shu ma’noda o‘zbekistonlik olim A.Yusupov yoshlarni zamonaviy taraqqiyotning turli bosqichlarida ro‘y beradigan o‘zgarishlarning muhim resursidir, degan fikrni ilgari suradi<sup>21</sup>.

Bu borada muallif dunyoda kuzatilayotgan turli transformatsion o‘zgarishlar (noaniqliklar, turli mojarolar, geosiyosiy to‘qnashuvlar, ekologik xavf-xatarlar va h.k.) sharoitida yoshlar siyosati tobora dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib borayotganini e’tirof etadi. Ayni vaqtda, bunday sharoitda yoshlarda turli zamonaviy o‘zgarishlarga (shu jumladan, inqirozli holatlarga) qarshi ko‘nikma va salohiyatni shakllantirish hamda rivojlantirish masalasi ustuvor ahamiyat kasb etishi maqsadga muvofiq, degan fikr ilgari suriladi.

Muallif fikricha, bugungi kun yoshlari muhim tarixiy burilish pallasida turibdi. Dunyoda kuzatilayotgan turli transformatsion jarayonlar, global o‘zgarishlar “*kattalarning keyingi avlodga*” adolatli va ziddiyatsiz dunyoni meros qoldirishi an’anasining ayrim hollarda buzilishini keltirib chiqarmoqda. Buning natijasida yoshlar oldingi avlod davrida bo‘lmagan yangi o‘zgarishlarga guvoh bo‘lmoqda, yangi tahdidlarga qarshi turishiga to‘g‘ri kelmoqda<sup>22</sup>.

So‘nggi yillarda zamonaviy tendensiyalarning yoshlarga ta’siri aksida “yo‘qotilgan avlod” (*lost generation*) atamasi yana qo‘llana boshlandi<sup>23</sup>. Zamonaviy dunyoda mazkur atama axborot texnologiyalarining rivojlanishi,

<sup>20</sup> Генеральный секретарь ООН: молодежь – это надежда человечества // news.un.org/ru/story/2018/08/1335992

<sup>21</sup> Yusupov A. Youth is a strategic resource of Uzbek society // www.eureporter.co/world/uzbekistan/ 2021/10/11/youth-is-a-strategic-resource-of-uzbek-society/

<sup>22</sup> Yusupov A. Youth is a strategic resource of Uzbek society // www.eureporter.co/world/uzbekistan/ 2021/10/11/youth-is-a-strategic-resource-of-uzbek-society/

<sup>23</sup> ushbu atama aslida Amerika adabiyotiga tegishli bo‘lib, bolaligi urush yillariga to‘g‘ri kelgan avlodga nisbatan qo‘llanadi va u Birinchi jahon urushi bilan bog‘liq.

“raqamlashtirish”ning barcha sohalarga faol joriy qilinishi ta’sirida yosh avlodning adabiyot, fan, mehnat va boshqa an’anaviy tarzda katta avlod hayotiy muhim hisoblagan jihatlarni qabul qilmasligi bilan izohlanadi. Bu, o‘z navbatida jamiyatda “otalar va bolalar ziddiyati” yoki “avlodlar to‘qnashuvi” degan tushunchalarni vujudga keltirdi.

Shuningdek, zamonaviy yoshlarga xos yuqorida qayd etilgan xususiyatlar bilan bir qatorda ularning psixologik qiyofasida “*hamma narsaga, tez va birdaniga*” erishish tamoyilining ustunlik qilishini ko‘rish mumkin. Bizningcha, bunga zamonaviy axborot texnologiyalarning shiddat bilan rivojlanishi, tengdoshlar orasida kuchli raqobatning mavjudligi kabi omillar sabab.

Bu borada dissertatsiyada yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan mexanizm va texnologiyalarning ham har bir davlatga xos xususiyatini inobatga olgan holda barcha davlatlarga xos universal yondashuvlarni keltirib o‘tilgan.

Dissertatsiyaning “**Yoshlar siyosatini amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlari: xalqaro tajriba va milliy amaliyot**” deb nomlanuvchi ikkinchi bobida zamonaviy dunyoda yoshlar siyosatini amalga oshirish bilan bog‘liq turli tendensiyalar, ushbu jarayonning o‘ziga xos xususiyatlari rivojlangan xorijiy davlatlar (2 rasm) va O‘zbekiston misolida tadqiq qilingan. Bu borada turli davlatlarda yoshlar siyosatining institutsionlashuvi jarayonlari va bosqichlari, ushbu yo‘nalishda jamiyat va davlat munosabatlarining shakllanishining asosiy jihatlari ochib berilgan.

2-rasm

### YI va mintaqaning ayrim davlatlarida yoshlar siyosatining asosiy yo‘nalishlari

YI	Norvegiya	Daniya	Shvetsiya	Finlandiya
<ul style="list-style-type: none"> <li>- Ittifoqning yoshlar bilan uzviy hamkorligini ta‘minlash;</li> <li>- jinslar tengligini ta‘minlash;</li> <li>- inklyuziv jamiyatni yaratish;</li> <li>- axborot olish va konstruktiv muloqotni ta‘minlash;</li> <li>- ruhiy sog‘lomlik va farovonlikni ta‘minlash;</li> <li>- qishloq yoshlarini qo‘llab-quvvatlash;</li> <li>- yoshlarning bandligini ta‘minlash;</li> <li>- sifatli ta‘lim;</li> <li>- yoshlar uchun qulay infratuzilmani yaratish;</li> <li>- Yevropaning “yashil” rivojlanishini ta‘minlash;</li> <li>- yoshlar tashkilotlarini qo‘llab-quvvatlash va ular uchun turli dasturlarni ishlab chiqish</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- oilada va mahallada tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish;</li> <li>- teng huquq va imkoniyatlarni yaratish;</li> <li>- jamiyatdagi turli jarayonlarda ishtirok etish va ularga ta‘sir o‘tkazish;</li> <li>- barcha uchun sifatli xizmatlarni yaratish.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- yoshlarning intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarish;</li> <li>- ta‘lim va bandlik masalalarida ko‘maklashish;</li> <li>- sog‘liqliqni saqlash;</li> <li>- yoshlarning bo‘sh vaqtini oqilona tashkillashtirish;</li> <li>- ijtimoiy zaif, jsmladan imkoniyati cheklangan yoshlarga zarur ko‘mak ko‘rsatish.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- yoshlarning ruhiy sog‘lig‘ini yaxshilash;</li> <li>- yoshlarning bo‘sh vaqtini oqilona tashkillashtirish;</li> <li>- yoshlarni ijtimoiy muammolarni hal qilish yo‘lida birlashtirish (integratsiya);</li> <li>- yoshlarni malakali mutaxassis sifatida mehnat bozoriga chiqishini ta‘minlash.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- to‘laqonli hayot uchun barcha sharoitlarni yaratish;</li> <li>- yoshlarni ijtimoiy qurshovga (izolyatsiya) tushib qolishdan asrash;</li> <li>- ijtimoiy jarayonlarda ishtirok etish va ularga ta‘sir o‘tkazish; yoshlarning jamiyatga ishonchini oshirish;</li> <li>- yoshlarning xavfsizligini ta‘minlash, jumladan diskriminatsion holatlarga yo‘l qo‘ymaslik;</li> <li>- mehnat bozorida yoshlarni qo‘llab-quvvatlash.</li> </ul>

Shu bilan birga, yoshlarning alohida demografik-ijtimoiy guruh sifatida siyosiy tizim va jamiyatdagi o‘zgarishlarga munosabati, ularning ushbu jarayondagi ishtiroki darajasi va o‘rni masalalariga e’tibor qaratilgan. Jumladan,

yoshlarning hayotiy pozitsiyasi, mazkur qatlamning siyosiy va huquqiy madaniyati hamda ijtimoiy faolligining yuqori darajasi har bir davlatning kelgusi taqdirini belgilab beruvchi omil ekanligi asoslab berilgan. Shuningdek, yoshlar siyosatini amalga oshirishda Sharq va G'arb makonining o'ziga xos jihatlari, ularning zamonaviy tendensiyalar bilan o'zaro munosabati tahlil qilingan. Bu borada turli davlatlardagi yoshlarning madaniyati, huquq va majburiyatlari, oila hamda jamiyatdagi o'rni, qadriyatlarini, qiziqish va ehtiyojlari ochib berilgan.

Ayni paytda, yoshlarga nisbatan turli yo'nalishdagi tahdidlar (ma'naviy, mafkuraviy, siyosiy, diniy va h.k.) tahlili, ularning yoshlar siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshirishga salbiy ta'siri va ularni bartaraf etish chora-tadbirlari, mexanizmlari ochib berilgan. Bu borada yirik olimlar va amaliyotchi mutaxassislar fikr-mulohazalari o'zaro qiyosiy tahlil qilingan, yoshlarni har tomonlama etuk qilib tarbiyalashda yoshlar siyosatining tendensiyalari konseptual jihatlarga urg'u berilgan.

Muallif dunyodagi turli davlatlarda yoshlarga oid davlat siyosatining amalga oshirilishining o'ziga xos xususiyatlari, farq qiluvchi va umumiy jihatlarni o'zaro solishtirib tahlil qiladi. Jumladan, Yevropa Ittifoqi, AQSh, Osiyo, MDH davlatlaridagi yoshlar siyosatining mazmun-mohiyati ochib berilgan. Xususan, xorijiy davlatlarda yoshlar toifasining yosh chegaralari turlicha belgilangan, masalan Niderlandiyada yoshlar toifasiga 25 yoshgacha bo'lgan barcha bolalar va yoshlar kiritiladi<sup>24</sup>. Lyuksemburgda yoshlar toifasi uchun yosh chegarasi 12–25 qilib belgilangan<sup>25</sup>. Norvegiyada yoshlar siyosati tushunchasi 12 yoshdan 29 yoshgacha bo'lgan fuqarolar uchun xavfsiz shart-sharoitlarni yaratishni nazarda tutadi<sup>26</sup> va h.k.

Tahlillar asosida muallif zamonaviy xorijiy davlatlarda yoshlarga oid davlat siyosati — bu yoshlarning jamiyat va davlat manfaatlari yo'lida o'z salohiyatini samarali amalga oshirishi va muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi uchun zarur shart-sharoit va imkoniyatlarni yaratishni ko'zda tutuvchi ustuvor vazifa va chora-tadbirlar tizimidir, degan to'xtamga keladi.

Mutaxassislarning qayd etishicha, mustaqillik yillariga xos jihatlardan biri — bu mamlakatda “o'tish davri avlodi” shakllana boshlanganidir. Zero, aynan ular erkin demokratik jamiyat qurish yo'lida o'zlarining bor kuch-qudrati va salohiyatlarini amalga oshirdilar<sup>27</sup>.

Yoshlar siyosatida ma'naviy va siyosiy tahdidlar diskursiga to'xtalib, muallif taniqli ma'naviyatshunos olis A.Erkayevning fikrini qo'llab-quvvatlaydi. Ma'naviyat, uning yuqori darajada bo'lishi yosh avlod aql-zakovati, ularning atrofda sodir bo'layotgan voqea-hodisalar ichida adashib ketmasligi uchun kuchli qurol hisoblanadi. Shu bois, yoshlar ma'naviy salohiyatini yuksaltirish, uni turli tahdidlarga nisbatan mustahkam va raqobatbardosh qilish alohida e'tiborni taqozo etadi. Zero, zamonning ilmiy-texnik taraqqiyot talablariga ham javob berishimiz,

<sup>24</sup> Nissen C. Youth Policy in the Netherlands: A Report. – Strasbourg, 2000. – P. 17– 18.

<sup>25</sup> Demanuele J. Youth Policy in Luxembourg: Report by an International Panel of Experts Appointed by the Council of Europe. – Strasbourg, 2002. – P. 15– 17.

<sup>26</sup> Wolf M. Youth Policy in Norway: Report by the International Team of Experts Appointed by the Council of Europe. – Strasbourg, 2004. P. 19.

<sup>27</sup> Туленова Г. Молодёжная политика в Республике Узбекистан: состояние и перспективы развития. – Т.: Aloqachi. 2008.- С.8

milliy ongimiz va identligimizni ham nafaqat saqlab qolishimiz, balki mustahkamlashimiz zarur<sup>28</sup>. Ayrim mutaxassislarning fikricha, globallasuv jarayonlari milliy g'oya va rivojlanishning milliy yo'li xususidagi fikrlarning amaliy ahamiyatini kamaytirmoqda<sup>29</sup>.

Shu o'rinda, "tahdid" atamasiga ham tavsif berib o'tish joiz. Oddiy til bilan aytganda, "tahdid" xuruj va buzish ma'nolarini anglatadi. Shu ma'noda, ma'naviy tahdidlar shaxsni aqliy va axloqiy jihatdan buzishga qaratilgan maqsadli xurujlar hisoblanadi.

Taniqli siyosatshunos olim Sh. Paxrutdinov fikricha, "tahdid" deganda inson hayotiy faoliyati, umuman, yashashini chigallashtiruvchi hamda aniq tarixiy davr davomida aniq maqsad uchun yo'naltirilgan ijtimoiy strukturani, to'g'rirog'i, davlatning siyosiy asosini zaiflashtiruvchi, qolaversa, yemirishga qaratilgan mahalliy, hududiy, mintaqaviy va nihoyat, umumsayyoraviy salbiy omillarning "kirib kelishi" tufayli yuz beruvchi makon va zamonda muayyan salbiy siyosiy ijtimoiy va tarixiy vaziyatni tushunish lozim<sup>30</sup>.

O'rganishlar asosida muallif mamlakatimizda ma'naviyat, shu jumladan yoshlar ma'naviyati, yoshlarning siyosiy ongini oshirish, ularning ushbu yo'nalishdagi turli tahdidlarga nisbatan tahdidbardoshligini oshirishga qaratilgan ishlarning muayyan darajadagi samarador va natijador ekanini inkon qilmagan holda bugungi kunda mamlakatimizda ma'naviy xavfsizlikni ta'minlash konsepsiyasini qabul qilish lozim, degan fikrni bildiradi. Aynan ushbu hujjat zamonaviy dunyoda kuzatilayotgan turli ma'naviy tahdidlarni, ularning O'zbekistonga ta'sirini va yechimlarini o'z ichiga olgan ushbu yo'nalishdagi davlat siyosatini belgilovchi muhim huquqiy-siyosiy hujjat bo'lishi kerak.

Tadqiqotning **"Mamlakat taraqqiyotini ta'minlashda yoshlar siyosatining ahamiyati"** deb nomlanuvchi uchinchi bobida yoshlar siyosatini amalga oshirish jarayonida ishtirok etuvchi subyektlar, ularning o'zaro hamkorligi va mexanizmlari, yoshlarda turli zamonaviy tahdidlarga qarshi mafkuraviy bardoshlilik (immunitet) ko'nikmalarini shakllantirish hamda mazkur masalalarning bevosita va bilvosita mamlakat taraqqiyotini ta'minlashdagi ahamiyatiga bag'ishlangan. Bunda yoshlar siyosatining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi, buning uchun zarur shart-sharoit va imkoniyatlar yaratilganligi mamlakat taraqqiyotini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qilishi ochib berilgan. Shu bilan birga, amalga oshirilgan islohotlarning bevosita yoshlar hayotiga ta'siri, yoshlarning munosabati ratsional-tanqidiy nuqtai nazardan tahlil qilingan.

Mazkur bobning tub mazmun-mohiyatini mamlakatning barqaror taraqqiyotini ta'minlashda ishtirok etuvchi barcha subyektlar faoliyatining natijador va samarador bo'lishi (1), yoshlarda turli tahdidlarga qarshi tura oladigan himoya ko'nikmasini mustahkamlash (2) hamda yoshlardagi mavjud bilim va salohiyatdan maqsadli/unumli foydalanish va buning uchun yetarli shart-sharoitlarning yaratilgani (3) bilan bog'liq masalalarning ilmiy-metodologik

<sup>28</sup> *Erkayev A.* Yangi O'zbekiston: mo'ljal – Uchinchi Rennessans. T.: "Ma'naviyat", 2021. – B. 17.

<sup>29</sup> *Духовное измерение современной политики.* — М. ИФРАН. 2003. — С. 161.

<sup>30</sup> *Paxrutdinov.Sh.* "Tahdid" tushunchasi: nazariya va amaliyot. T.: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 1998. B. 7-8

jihatdan asoslantirilgani tashkil etadi. Xususan, yoshlar siyosatini amalga oshirishda davlat hokimiyati ko‘proq NNTlar imkoniyatlaridan foydalanish, yoshlarni davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish uchun jozibador mexanizmlarni ishlab chiqish hamda davlatning yoshlarni doimiy tarzda “eshitishi” uchun turli zamonaviy platformalarni yaratish zarurati mavjudligi shular jumlasidandir.


Umuman olganda, mazkur bobda muallif tomonidan yoshlarga oid davlat siyosatining mamlakat taraqqiyotini ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega ekani va bu jarayonda yoshlarning o‘zi asosiy “harakatlantiruvchi kuch” bo‘lishi lozimligi bilan bog‘liq masalalar siyosatshunoslikning ilmiy-metodologik tamoyillari, uslublari asosida tahlil qilingan va tegishli xulosalar ishlab chiqilgan.

Ayni paytda, tadqiqot jarayonida yoshlar siyosatini amalga oshiruvchi subyektlarning o‘zaro hamkorligining etarli darajada emasligini ko‘rsatuvchi bir nechta masalalar ilmiy-metodologik va ratsional-tanqidiy nuqtai nazardan tahlil qilingan. Bu borada mamlakatimiz yoshlari orasida o‘tkazilgan turli tadqiqotlar natijalari, mahalliy va xorijiy ekspert-mutaxassislar fikr-mulohazalari, OAVlardagi ma‘lumotlar hamda o‘zaro suhbatlarda yoshlar tomonidan bildirilgan fikrlar asos qilib olingan.

Bu borada YUNISEF, “Yuksalish” umummilliy harakati va Yoshlar ittifoqi hamkorligida “O‘zbekiston yoshlari: tahdidlar va istiqbollar” mavzusida o‘tkazgan tadqiqot natijalari<sup>31</sup> diqqatga sazovor. Mazkur tadqiqot 2018-2020-yillarda O‘zbekistonning barcha hududlarida 14-30 yoshli aholi orasida o‘tkazilgan. So‘rovda jami 4458 ta respondent qatnashgan, shuningdek, 24 fokus-guruh tashkil qilingan. Tadqiqotda ishtirokchilariga jumladan, o‘zgartirishni taqozo etadigan bir nechta sohalar ichida yoshlar uchun eng muhim 3 ta sohani qayd etish so‘ralgan. Unga ko‘ra, respondentlar ta‘lim (77%), bandlik (62%) va tadbirkorlik (37%) sohalarini nisbatan ko‘proq muhim deb hisoblashlarini bildirishgan (diagramma 1).

Diagramma 1

Bugungi kunda yoshlar uchun muhim bo‘lgan qaysi 3 ta sohani o‘zgartirish lozim? (umumiy javoblarga nisbatan foiz hisobida)



Muallif ijtimoiy integratsiya yoshlarning shaxs sifatida shakllanishi uchun muhim ahamiyatga egaligini inobatga olgan holda, respondentlarning bu boradagi fikr-mulohazalariga ham e‘tibor qaratgan. Xususan, yoshlarning fikricha, ular ota-onalarga to‘liq ishonishadi, do‘stlik tushunchasiga biroz tanqidiy qarashadi. Ayni vaqtda, respondentlar yon-atrofdagi kattalar ulardan doimo “itoatkor”, “gapga quloq soladigan” bo‘lishni istashadi, degan fikrni ham bildirishgan.

<sup>31</sup> Молодежь Узбекистана: вызовы и перспективы // [www.unicef.org/uzbekistan/youth-report](http://www.unicef.org/uzbekistan/youth-report)

Yoshlar o‘zlarini faqatgina mustaqil daromad topa boshlaganlarida hamda oila qurgandan keyingina erkin his qila boshlashi masalasiga e’tibor qaratilgan.

Globalashuvning yoshlar tarbiyasiga o‘tkazayotgan salbiy ta’sirining umumiy manzarasini ilmiy asoslagan holda muallif hozirda yoshlar orasida “ommaviy madaniyat”ning turli xil ko‘rinishlari tobora keng tarqalayotgani (1), maishiy narsalarga o‘chlik, malaka va saviyaning etishmasligi, ilm-fanga qiziqishning susayishi (2), taqlidchilik, turli soxta “ideal”larga ko‘r-ko‘rona ergashish (3) kabi salbiy tendensiyalar kuzatilayotganini qayd etgan.

Buning asosida dissertant bugungi global taraqqiyot sharoitida yoshlarda g‘oyaviy immunitetni rivojlantirish obyektiv zaruriyatga aylanmoqda degan fikrni ilgari surgan. Bu o‘rta va uzoq istiqbolda jamiyatning yaxlit ma’naviy-mafkuraviy manzarasini chuqur ilmiy-metodologik asoslash masalasini yanada dolzarblashtirmoqda.

Ayni paytda, muallif ratsional-tanqidiy yondashuv asosida O‘zbekistonda hanuzgacha yoshlarni yaxlit substansiya, ya’ni ommaviy ravishda yondashish lozim bo‘lgan qatlam deb qabul qilish davom etayotganini ko‘rsatgan. Muallif fikricha, yoshlar turlicha va o‘zgaruvchan, ularning qiziqishlari bir-biridan farq qiladi va shu bois ularning barchasini yagona “qolip”ga solish maqsadga muvofiq emas degan to‘xtamga kelgan.

Tadqiqotning **“O‘zbekistonning barqaror taraqqiyotini ta’minlashda yoshlar siyosatining istiqbollari”** deb nomlanuvchi to‘rtinchi bobida O‘zbekistonda so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlarda, qabul qilinayotgan siyosiy qarorlarda yoshlar siyosatining aks etishi, uning strategik yo‘nalishlari va sohadagi asosiy tendensiyalar dinamikasi ochib berilgan. Bu mamlakat mustaqillikni qo‘lga kiritgan 1991-yildan 2023-yilgacha bo‘lgan xronologik davrni o‘z ichiga oladi.

Xususan, O‘zbekistonda davlat boshqaruvini isloh qilish bilan bog‘liq qabul qilingan strategik qarorlarning mamlakat yoshlari hayotidagi o‘rni va unda yoshlarning ishtiroki ochib berilgan. Bu jihat mazkur bobning asosiy konseptlaridan birini tashkil etgan. Bu borada “2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 5 ta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”, “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” hamda “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi” doirasida yoshlar bilan bog‘liq qabul qilingan bir qator vazifalar va strategik yo‘nalishlarning mazmun-mohiyati ochib berilgan. Shuningdek, ushbu bobda yoshlar siyosatining mamlakat milliy manfaatlari bilan uyg‘unligi, uni ta’minlashdagi ahamiyati bilan bog‘liq masalalar zamonaviy dunyodagi o‘zgarishlarga mutanosib tarzda tahlil qilingan.

Muallif tadqiqot natijalari asosida zamonaviy yoshlar uchun hayotiy yo‘nalishlarning ijtimoiylikdan xususiylikka o‘zgarishi xosdir degan fikrni ilgari surgan. Muvaffaqiyatli martabaga intilish zamonaviy jamiyat va bozor iqtisodiyoti sharoitida tabiiy holdir. Shuningdek, moddiy farovonlik yoshlar tomonidan yuksak baholanadi va respondentlar uchun nafaqat qiziqarli ish, balki istiqbolli va yuqori maoshli ish topish ham muhimdir.

Yaqin, o‘rta va uzoq istiqbolda O‘zbekistonda yoshlar siyosati doirasida amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligini yanada oshirish maqsadida muallif

yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish (1), uning samaradorligini muntazam tarzda oshirib borish (2), ushbu yo‘nalishda amalga oshirilgan ishlarni baholashni yo‘lga qo‘yish (3) mamlakat institutsional rivojlanishining muhim shartlaridan biri degan muhim fikrni ilgari surgan.

Shu ma’nodagi, mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqichida yoshlarga oid davlat siyosatining real hayot bilan bog‘langan, yoshlarning mavjud va kelgusidagi ehtiyoj va manfaatlarini hisobga oladigan, ularning har tomonlama rivojlanishi, intellektual salohiyatini to‘la namoyon qilishlari uchun shart-sharoit yaratish, barcha imkoniyatlarni to‘la ishga solishga qaratilgan tizimga obyektiv zarurat vujudga kelgani ta’kidlangan.

Tadqiqotda shuningdek, mamlakatimizning yangi Konstitutsiyasiga yoshlar borasida kiritilgan o‘zgarishlarning mazmun-mohiyati ham ochib berilgan. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yangilangan Konstitutsiyada shaxsiy huquq va erkinliklar, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar borasidagi normalar qariyb 3 barobarga ko‘payib, ayniqsa inson huquqlari va erkinliklari kafolatlari esa 3,5 baravardan ko‘proqqa, oilaga bag‘ishlangani 2 barobarga ortayotganligini ko‘rishimiz mumkin.

Shuningdek, dissertatsiyada yoshlar borasida yangi konseptual hujjatga zarurat mavjudligining siyosiy ahamiyati ochib berilgan. Ma’lumki, 2021-yilda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori asosida O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlangan. Amalda ushbu hujjat 2025-yilda o‘z nihoyasiga yetadi<sup>32</sup>. Ushbu Konsepsiyaning ijobiy ahamiyatini inkor qilmagan holda ta’kidlash kerakki, mazkur hujjat amalda bor-yo‘g‘i 4 yillik davrni qamrab olgan bo‘lib, bu strategik jihatdan o‘ta qisqa muddat hisoblanadi.

## XULOSA

“O‘zbekistonda yoshlar siyosatini amalga oshirishga kompleks yondashuv va uning strategik yo‘nalishlari” mavzusida olib borilgan mazkur tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. 2016-yildan keyin O‘zbekistonda yoshlarga oid siyosat mazmun-mohiyati va ko‘lami jihatidan tubdan o‘zgardi. Bu o‘zgarishlar ijobiy xarakterga ega bo‘lib, birinchi navbatda, davr o‘zgarishi va zamonaviy tendensiyalarni o‘zida aks ettirgan huquqiy baza yaratildi. Tarixan qisqa muddat davomida ushbu sohada qabul qilingan bunday hujjatlar sifat va miqdor jihatdan yoshlar masalasi davlat siyosati kun tartibida ekanligidan dalolat beradi.

2. O‘zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan yoshlarni madaniyat, san’at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish, yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish masalalariga yangi tizim asosida yondashish bo‘yicha 5 ta muhim tashabbus ilgari surildi. Buni chekka hududlarda yashayotgan yoshlarga o‘z qobiliyat va salohiyatini yuzaga

---

<sup>32</sup> Qarang. O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori //lex.uz/docs/5234746

chiqarish, bo'sh vaqtdan unumli foydalanish bo'yicha zarur shart-sharoitlar yaratish masalalarini qamrab olgan yangicha yondashuv sifatida e'tirof etish lozim.

3. Tadqiqot natijalariga ko'ra, yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda davlat hokimiyati organlari ustunlik qilishi (paternalistik yondashuv) maqsadga muvofiq emas, aksincha ularning bu jarayondagi ishtiroki faqatgina fuqarolik jamiyati institutlari va boshqa jamoat tashkilotlarining yoshlar yo'nalishida faoliyati uchun zarur shart-sharoit va imkoniyatlarni yaratish bilan chegaralanishi lozim, degan fikr ilgari surildi.

4. Yoshlar bilan ishlashda tezkorlik, o'zaro muloqot, ijtimoiy faollikni oqilona yo'naltirish/oshirish, strategik ustuvorlik va natijadorlikka asoslangan zamonaviy texnologiyalarni o'zi ichiga olgan faoliyat kutilgan natijani beradi. Davr shiddati va dunyoda kuzatilayotgan turli o'zgarishlar sharoitida mamlakatimiz yoshlari ehtiyojlarini muntazam ravishda tizimli o'rganib borish, ularning haq-huquqlari va manfaatlarini himoya qilish vazifasi dolzarbligicha qolmoqda.

5. Jamiyatda yoshlarning hayotda o'zlarining munosib o'rinlarini egallashlari hamda bor bilim, salohiyatini mamlakatning barqaror taraqqiyoti uchun yo'naltirishlariga to'sqinlik qiluvchi ayrim salbiy holatlar saqlanib qolmoqda. Xususan, erta nikoh, erta tug'ruq, oilaviy ajrim, huquqbuzarlik, tashqi migratsiyaga moyillik va h.k. Buning natijasida yoshlar hayotida maishiy muammolar va ularning echimini izlash kabi masalalar markaziy o'rinni egallamoqda.

6. Yoshlarni o'z kuchiga ishontirish, ularda mehnatsevarlik, fidoyilik va vatanparvarlik xislatlarini mustahkamlashga qaratilgan ishlarning manzilliligi va maqsadliligi hamda samaradorligini oshirish maqsadga muvofiq. Bu borada ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishda an'anaviy tarzda amalga oshiriladigan chora-tadbirlarni bozor munosabatlari va tegishli hudud imkoniyatlari va sharoitiga uyg'unlashtirgan holda doimiy rag'batlantirish mexanizmlarini yaratish talab etiladi.

7. Yoshlar bilan ishlashda avvalo, ularning xohish-istaklari, qiziqishlari va manfaatlari ustunlikka ega bo'lishi hamda eng muhimi, ularning bevosita ishtirokini ta'minlash masalalariga jiddiy e'tibor qaratish lozim. Bunda yoshlar o'z muammolarini tengdoshlari orasida erkin muhokama qilishlari va birgalikda hal qilishlari ko'proq natija berishi nazarda tutilmoqda. Shu bilan birga, yoshlar orasidagi dolzarb muammolarni doimiy tarzda aniqlab borish va ularning kelgusida vujudga kelishi ehtimollarini bartaraf etish maqsadida O'zbekiston yoshlarining bugungi ijtimoiy qiyofasini (portret) yaratish va muntazam yangilab borish lozim.

8. Axborot kommunikatsion vositalarning yuqori sur'atlarda rivojlanishi natijasida internet, uyali aloqa vositasi, telekommunikatsiyalar va turli axborot nashrlarining kirib kelmoqda va bu jarayonga yoshlarning tez moslashmoqda, kattalar esa aksincha moslashishi qiyin kechmoqda. Buning natijasida, kattalar va yoshlar o'rtasida "ijtimoiy tushunmovchilik"ni keltirib chiqarmoqda. Ushbu tushuncha ilk marotaba ushbu tadqiqot doirasida qo'llanildi. Shuningdek, "ommaviy madaniyat"ning turli ko'rinishlari yoshlar orasida keng tarqalishi oqibatida yoshlar orasida maishiy narsalarga o'chlik, malaka va saviyaning etishmasligi, ilm-fanga qiziqishning susayishi kabi holatlar paydo bo'lmoqda. Ma'naviy-g'oyaviy nutai nazardan esa yoshlar orasida taqlidchilik, turli soxta "ideal"larga ko'r-ko'rona ergashish kabi salbiy tendensiyalar kuzatilmoqda;

9. Ta'kidlash kerakki, 2021-yilda "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi" tasdiqlangan va ushbu hujjatning amal qilish muddati 2025-yilda o'z nihoyasiga yetadi. Fikrimizcha, yoshlar bilan bog'liq barcha turdagi hujjatlar strategik ahamiyatga ega va shu nuqtai nazardan, ular uzoq istiqbolga mo'ljallanishi lozim.

10. Yosh xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotdagi o'rnini yanada oshirish lozim. Bunda ularning hayotini "oila qurgungacha" va "oila qurgandan keyin" kabi stereotiplarga asoslangan qarashlardan xoli mexanizmlarni yaratish maqsadga muvofiq. Bu ayniqsa, bizning jamiyatimizga o'xshagan urf-odat va an'analar ustunlik qiladigan jamiyatlar uchun o'ta dolzarb.

O'rganishlar mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosati doirasida yuqorida qayd etilgan bir qator ishlar amalga oshirilishiga qaramasdan sohada ayrim muammolar saqlanib qolayotganini ko'rsatdi. Shu bois, mavjud muammolarni bartaraf etish va ularning kelgusida vujudga kelish ehtimollarini kamaytirish maqsadida quyidagi **amaliy taklif** va **tavsiyalarimizni ilgari suramiz**.

*Birinchi*dan, yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish va umuman mamlakat aholisining yarmidan ko'pini yoshlar tashkil qilishini inobatga olib, davlat byudjetining yillik xarajatlar qismiga alohida band kiritilishi maqsadga muvofiq (masalan, ushbu bandni "mamlakat kelajagi uchun" deb nomlash mumkin). Bu nafaqat davlat mablag'larining oqilona sarflanishini balki, aniq yo'naltirilishini nazorat qilish imkonini beradi.

*Ikkinchi*dan, yoshlar to'g'risidagi barcha me'yoriy-huquqlarni o'zida aks ettiruvchi "Yoshlar kodeksi"ni qabul qilish lozim. Bugungi kunda yoshlar bilan bog'liq turli jihatlarni o'zida aks ettirgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar soni 50 tadan oshib ketgan va ularning ayrimlarida o'zaro bir-birini takrorlovchi vazifalarni ham uchratish mumkin.

*Uchinchi*dan, yoshlarning davlat hokimiyatidagi (qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari) rolini sezilarli darajada kuchaytirish bilan bog'liq zamonaviy mexanizmlarni ishlab chiqish, xususan sohaga O'zbekistonning bugungi taraqqiyot bosqichiga mos ilg'or xorijiy tajribani amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiq. Bu nafaqat yoshlarni davlat hokimiyati organlaridagi ulushini oshirish, balki yilda bir yoki ikki marotaba bevosita yoshlar muammolarini eshitishni nazarda tutadi. Masalan, Bosh vazir, Oliy sud raisi, Qonunchilik palatasi spikeri va Senat raisi har yarim yilda bevosita joylarga chiqib, aynan yoshlar bilan sayyor uchrashuvlar o'tkazishi mexanizmini joriy etish mumkin. Bundan tashqari, har chorakda turli formatlarda yoshlar bilan bevosita yoki bilvosita muloqotni tashkil qilish mumkin, jumladan, "*Bosh vazir sizni eshitadi*", "*Parlament yoshlar bilan birga*", "*Sud sizning ishonchli hamroxingiz*" ruknlari ostida uchrashuvlarni tashkil qilish (telefon, Internet, masofaviy formatlarida) bizningcha, yoshlarning davlat hokimiyatiga nisbatan ishonchini yanada oshiradi. Bunday uchrashuvlarning mantiqiy yakuni Prezidentning yoshlar bilan uchrashuvi (*masalan, "Sizning ovozingiz muhim"* yoki "*Prezident Siz bilan*" mavzularida) maqsadga muvofiq.

*To'rtinchi*dan, yoshlar bilan ishlashda davlat idoralari va nodavlat notijorat tashkilotlari, shuningdek, fuqarolik jamiyati institutlarining uzviy, tizimli hamkorligini ta'minlash bugungi davrning obyektiv talabi sifatida dolzarblashmoqda. Bunda NNTlarni yoshlarga oid davlat siyosatini amalga

oshirishga vakolatli bo'lgan davlat institutlariga raqobatchi emas, balki ko'makchi sifatida yondashish lozim. Bu borada xususan, yoshlar tashkilotlari faoliyatini davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshirish amaliyotini takomillashtirish, yoshlar muammolarini hal qilishda ularning ishtirokini kengaytirish lozim. Xususan, joylarda ta'lim infratuzilmalaridan yoshlarni sport, san'at, madaniyat kabi yo'nalishlarda maqsadli foydalanishga qaratilgan tizim ishlab chiqish maqsadga muvofiq (AQSh va Yevropa davlatlari tajribasi asosida).

*Beshinchidan*, yoshlar siyosatiga "bir martalik" va faqat turli tadbirlarni o'tkazishga qaratilgan loyiha sifatida yondashish kutilgan natijani bermaydi. Bu o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra, uzoq muddatli va murakkab jarayon hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, u kompleks yondashuvni taqozo etadi, ya'ni bu jarayonda barcha sohalar qamrab olinadi hamda bir nechta subyekt ishtirok etadi. Bugungi davr yoshlarning intellektual salohiyati va dunyoqarashini yuksaltirish, vatanparvarlik, o'z xalqiga muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalash bo'yicha yaqin, o'rta va uzoq muddatga mo'ljallangan Strategiyani ishlab chiqish va amalga oshirishni taqozo etmoqda. Shu bois, yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish, uni zamonaviy dunyoda kechayotgan turli o'zgarish va sharoitlarga mos ravishda rivojlantirish hamda ushbu jarayonlarda mamlakat yoshlari qiyofasining o'zgarib borish tendensiyalarini, shuningdek uning ilmiy asoslarini hisobga oladigan uzoq muddatga mo'ljallangan konseptual dasturni ishlab chiqish lozim. Bunday dastur bizningcha, bitta yosh avlod shakllanishi davrini o'z ichiga olishi maqsadga muvofiq, mamlakat qonunchiligida yoshlar toifasiga 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan aholi qatlami kirishini inobatga olgan holda kamida 10 yoki 15 yillik davrni o'z ichiga olishi maqsadga muvofiq. Masalan, 2025-2040-yillarni o'z ichiga olgan "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2040-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" ishlab chiqilishi lozim. Zero, hozirda bo'lgan konsepsiya O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2021-yilda tasdiqlangan bo'lib, 2025-yilda o'z nihoyasiga yetadi. Mazkur hujjat amalda bor-yo'g'i 4 yillik davrni qamrab olgan bo'lib, strategik jihatdan o'ta qisqa muddat hisoblanadi.

*Oltinchidan*, yosh avlodning shakllanib voyaga yetishi va undan keyingi 30 yoshgacha bo'lgan davrini oqilon tashkillashtirish bo'yicha aniq harakatlar algoritmi ishlab chiqilmagan. Shu bois, mahalla — maktab — oliy ta'lim muassasasi/ish joyi/harbiy xizmat — malakali mutaxassis sifatidagi izchil hayot faoliyatini o'z ichiga olgan harakatlar algoritmi ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq. Eng muhimi, bu tizim har bir yoshning imkoniyati salohiyati va sharoitini inobatga olishi, ya'ni yoshlarning muayyan iqtidori va talanti ustuvor ahamiyatga ega bo'lishi maqsadga muvofiq. Ushbu tizimning konseptini turli balandparvoz chaqiriq va da'vatlar emas, yoshlarning kundalik hayoti va kelajagi bilan bog'liq omillar tashkil qilishi lozim (*masalan, "Men hayotga tayyorman" loyihasi va h.k.*).

*Yettinchidan*, bugungi davr shiddati mamlakat taraqqiyoti xavfsizligini ta'minlash va pirovard natijada barqaror taraqqiyot yo'lini tanlashni har bir davlatning muhim vazifalari bo'lishini taqozo etmoqda. Ushbu jarayonda esa jamiyatning yetakchi bo'g'ini bo'lgan yoshlarga tayanish davlat boshqaruvining ajralmas qismi bo'lishi lozim. Bu esa, o'z navbatida, yoshlar siyosatiga kompleks

yondashuv zaruratini yanada dolzarblashtiradi. Dissertatsiyada yoshlar siyosatining mamlakat milliy manfaatlarini shu jumladan, uning xavfsizligini ta'minlashdagi asosiy vazifalaridan biri "avlodlar o'rtasida muvozanatni ta'minlash"dan iborat, degan fikr ilgari surilgan.

*Sakkizinchidan*, mamlakatimizning barqaror rivojlanishini ta'minlashda yoshlarning o'rni ustuvor ahamiyat kasb etadi. Bunda O'zbekiston aholisi tarkibida yoshlar salmog'ining yuqoriligi, yoshlarning intellektual salohiyati va uni yuzaga chiqarish uchun yaratilgan shart-sharoitlar muhim rol o'ynaydi. Ayni vaqtda, yoshlarning turlichaligi (*geterogen*), ularning qiziqishlari, manfaat va ehtiyojlari bir-biridan farq qilishi va doimiy o'sishga intilishlari kabi xususiyatlari o'ziga xos murakkab jarayon hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish bilan bog'liq jarayonlar muntazam tarzda monitoring qilib borilishi, ya'ni ushbu yo'nalishdagi turli loyihalar samaradorligini tegishli miqdor va sifat ko'rsatkichlari asosida muntazam tarzda baholab borish va bu jarayonda NNTlar ishtirok etishi muhim. Ayni vaqtda, ushbu jarayonda fuqarolik jamiyati institutlari salohiyatidan keng foydalanish va buning uchun zarur imkoniyatlar yaratish davlatning ayrim majburiyatlarini engillashtiradi va bu boradagi ishlar samaradorligini oshiradi. Shuningdek, bu borada yaqin, o'rta va uzoq istiqbolga mo'ljallangan strategik dastur/rejalarni qabul qilishda ularni amalga oshirishga sarflanadigan imkoniyat va resurslarning kutilayotgan natija bilan o'zaro muvofiqligini tahlil qilib borish muhim yo'nalishlardan biridir.

*To'qqizinchidan*, yoshlarni ilm-fanga faol jalb qilish maqsadida ular orasida muntazam tarzda iqtidorli yoshlarni aniqlashga qaratilgan zamonaviy mexanizmlarni joriy qilish lozim. Bunda nafaqat talaba yoshlar, balki muayyan kasb-hunarga ega yoshlar ishtirokini ham ta'minlash maqsadga muvofiq. Shu bilan birga, bu jarayonda barcha ilmiy-tadqiqot institutlarida Ustoz-shogird an'alarini rivojlantirish maqsadida "Yosh tadqiqotchilar klub"larini tashkil qilish orqali ilm-fanga qiziquvchi yoshlarni saralab olish muhim. Ayni paytda, oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot institutlari moddiy texnik bazasini mustahkamlash va yangilab borish talab etiladi.

*O'ninchi*dan, jamiyatda yoshlar intiladigan namuna va mo'ljallarni ishlab chiqish lozim. Buning uchun avvalo, bevosita yoshlarning kundalik hayot tarzi bilan bog'liq loyihalarni, keyinchalik esa istiqbolga mo'ljallangan loyihalarni amalga oshirish talab etiladi. Jumladan, "Mening oilam - mening baxtim", "Ustozlar - hayot mash'ali", "Mening mahallam - mening faxrim", "Men tadbirkor bo'laman", "Mening birinchi ishim", "Mening hayot falsafam", "Men O'zbekistonlikman" va boshqa dolzarb mavzularda loyihalarni ishlab chiqish kerak.

*O'n birinchidan*, har yili Yoshlar ishlari agentligi tomonidan "O'zbekiston yoshlari" mavzusida milliy hisobot tayyorlanishi va Oliy Majlis Senatiga taqdim qilinishi maqsadga muvofiq.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.S.01.08 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАЦИОНАЛЬНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ  
УЗБЕКИСТАНА**

---

**НАЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА**

**ТУРГУНОВА НАСИБА ТУЙЧИЕВНА**

**КОМПЛЕКСНЫЙ ПОДХОД К РЕАЛИЗАЦИИ МОЛОДЕЖНОЙ  
ПОЛИТИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ И ЕГО СТРАТЕГИЧЕСКИЕ  
НАПРАВЛЕНИЯ**

**23.00.02 – Политические институты, процессы и технологии**

**АВТОРЕФЕРАТ  
диссертации доктора политических наук (DSc)**

**Тошкент–2024**

**Тема диссертации доктора наук (DSc) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2023.2.DSc/Ss83**

Диссертация выполнена в Национальном Университете Узбекистана.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-сайте Национального университета ([www.nuu.uz](http://www.nuu.uz)) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)).

**Научный консультант:** **Пахрутдинов Шукритдин Ильясович**  
доктор политических наук, профессор

**Официальные оппоненты:** **Ахмедов Хусниддин Аликулович**  
доктор политических наук, профессор

**Атамуратов Мурат Утепбергенович**  
доктор политических наук, доцент

**Мирзаахмедов Камолиддин Мансуржон ўғли**  
доктор политических наук, доцент

**Ведущая организация:** **Наманганский Государственный Университет**

Защита диссертации состоится « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2024 года в \_\_\_\_ часов на собрании Научного совета по присуждению ученых степеней № DSc03/30.12.2019.S.01.08 при Национальном университете Узбекистана (Адрес: 100174, г. Ташкент, Университетская улица, 4, здание факультета Социальных наук Национального университета Узбекистана, 5-й этаж, кабинет № 511. Тел.: (99871) 227-12-24; факс: (99871) 246-02-24; email: nauka@nuu.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Национального университета Узбекистана (зарегистрирована за номером \_\_\_\_). (Адрес: 100174, г. Ташкент, Университетская улица, 4. Административное здание НУУз, 2-й этаж, кабинет № 4. Тел.: (99871) 246-67-71; факс: (99871) 246-02-24).

Автореферат диссертации разослан « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2024 года  
(Реестр протокола рассылки № \_\_ от « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2024 года).

**Б.А. Омонов**  
Заместитель председателя Ученого совета по просуждению ученых степеней, д.п.н., доцент

**Г.Т. Исанова**  
Секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор философии (PhD), доцент

**Б.А. Омонов**  
Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, д.п.н., доцент

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наука (DSc))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В настоящее время в мировом масштабе обостряются нездоровая конкуренция, разного направления противоположности и противоречия. Все более угрожающий характер приобретают такие глобальные проблемы, как международный терроризм, экстремизм, нетерпимость, неграмотность, невежество, бедность, “вирус” идеи насилия, “массовая культура”, торговля людьми, контрабанда оружия и наркотиков, нелегальная миграция; все эти угрозы направлены на подрыв убеждений и ценностей, которые человечество исповедовало веками. При этом молодежь рассматривается как основная цель. Вмеште с тем сегодняшняя молодежь стоит на пороге важного исторического поворота. Различные трансформационные процессы, глобальные изменения, наблюдаемые в мире, в некоторых случаях нарушают традицию, согласно которой взрослые должны передавать следующему поколению справедливый и непротиворечивый мир. В результате этого молодые люди становятся свидетелями новых изменений, которых не наблюдали предыдущие поколения, вынуждены противостоять новым угрозам. Это связано с интенсивным развитием современных информационных технологий и усиления их влияния, с изменением тенденций в демократических ценностях, а также с тем фактом, что вооруженные конфликты, наблюдаемые в определенных регионах мира, накладывают отпечаток на жизнь молодежи. По мнению специалистов<sup>33</sup>, молодые люди становятся объектом различных социально-политических и экономических изменений, вызванных глобальными переменами. В этой связи Президент Шавкат Мирзиёев отметил, что сегодня в мире царят острая борьба и конкуренция, усиливается столкновение интересов. Процессы глобализации несут для человечества как беспрецедентно новые возможности, так и непредвиденные проблемы. Угроз и вызовов для национальной идентичности и духовных ценностей становится все больше. В сознание людей, особенно молодежи разными способами внедряются эгоцентризм, беззаботное отношение к труду, семье, потребительская культура; усиление таких угроз, как терроризм, экстремизм, транснациональная и киберпреступность, торговля людьми и наркотрафик<sup>34</sup>. Данная ситуация, в свою очередь, оказывает серьезное влияние на молодежную политику, требует формирования навыков при ее реализации, учета современных трансформационных процессов, адаптации и умения противостоять определенным противоречиям; все это предполагает необходимость научно-методологического обоснования этих процессов и регулярного изучения динамики изменений с практической точки зрения.

---

<sup>33</sup> Ферлонг А. Картмель Ф. Молодежь и социальные изменения: индивидуализация и риск в эпоху позднего модерна. 1997. Buckingham, Open University Press; Майлз С. Молодежный образ жизни в меняющемся мире. 2000. Buckingham, Open University Press.

<sup>34</sup> См.: Выступление Президента Республики Узбекистан Ш.М.Мирзиёева на видеоселекторном совещании 19 января 2021 года. // [president.uz/uz/lists/view/4089](http://president.uz/uz/lists/view/4089)

Ведущие научные центры мира, высшие образовательные учреждения развитых зарубежных стран, международные организации проводят научные изыскания, теоретические и практические исследования по реализации молодежной политики и ее стратегических направлений. При этом приоритетное значение приобретают работа с молодежью, создание инфраструктуры, необходимой для молодых людей, учета их интересов и потребностей в процессе принятия решений; также важно внедрение современных цифровых технологий. В частности, с середины 60-х годов XX века многие международные организации, особенно структуры ООН, начали развивать различные формы сотрудничества по воспитанию, социальной защите и всесторонней поддержке молодого поколения. Резолюция № 3140, принятая Экономическим и Социальным Советом ООН 14 декабря 1973 года, предлагала разработать и утвердить международную политику по правам молодежи на национальном и международном уровнях. В Пражской декларации 1998 года также отмечена важная роль молодежи в обществе.

С 90-х годов XX века еще более возросло внимание международного сообщества к проблеме молодежи. В этой связи со стороны ООН, других крупных международных и региональных организаций были приняты многие важные документы. Из них более 10 международных документов были приняты только в рамках ООН. Кроме того, в большинстве стран мира приняты законодательные акты по социальной защите молодежи и ее укреплению. Также существуют специализированные государственные структуры, реализующие молодежную политику и координирующие работу в этой сфере. В целом сегодня молодежная политика институционализована в большинстве стран мира. Несмотря на это, тот факт, что проблемы, с которыми сталкивается молодежь, все еще существуют, требует от стран и международного сообщества решительных действий во всех отношениях. Это требует еще большего международного внимания к проблемам молодежи. Сохранение проблем, связанных с молодежью в мире, ставит перед социально-политическими науками неотложную задачу разработать новую парадигму, основанную на комплексном подходе.

В новом Узбекистане большое внимание уделяется вопросам молодежи. В частности за короткий исторический срок была создана нормативно-правовая база в соответствии с современными условиями и тенденциями развития, сформированы институциональные структуры. Президентом Республики Узбекистан Ш.Мирзиёевым были выдвинуты пять важных инициатив. На основе определенных в ее рамках задач организовано активное вовлечение молодежи в духовно-просветительские, социальные и экономические процессы, решение существующих проблем в обществе путем надлежащего воспитания молодежи, создания для нее необходимых условий и возможностей.

Данное диссертационное исследование в известной степени служит реализации задач, определенных в Законе Республики Узбекистан «О государственной молодежной политике», в Указах Президента Республики Узбекистан «О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики

